


**O'ZBEK TILINI  
XORIJIY TIL SIFATIDA  
O'RGATISH MASALALARI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**O'ZBEK TILINI  
XORIJIY TIL SIFATIDA  
O'RGATISH MASALALARI**

18084



Toshkent – 2012

*Ushbu risola Toshkent davlat sharqshunoslik institutida faoliyat yurituvchi ITD-1-146 "O'zbek tilini xorijliklarga intensiv o'rgatish tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasi ishtirokchilari tomonidan yaratilgan.*

*Mualliflar:*

**Rixsiyeva Gulchehra**

*filologiya fanlari nomzodi,  
TDSHI dotsenti*

**Abdurahmonova Mehribon**

*JIDU dotsenti*

**Normatova Shoira**

*filologiya fanlari nomzodi,*

*JIDU dotsenti*

**Qalandarov Mirzajon**

*TDSHI tadqiqotchisi*

*Taqrizchilar:*

**Aripova Aziza**

*filologiya fanlari nomzodi*

**Sodiqova Shirin**

*filologiya fanlari nomzodi*

Ushbu qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashi tomonida nashrga tavsiya etilgan  
(№3 bayonnoma, 1.11.2012).



© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012

## O'ZBEK TILINI XORIJLIKLARGA INTENSIV O'RGATISH KONSEPSIYASI

O'zbekistonning xalqaro siyosatdagi mavqeyi va nufuzi ortib borgan sari iqtisodiy va madaniy sohalaridagi aloqalari ham kengayib bormoqda. Mazkur jarayonlar, jumladan, san'at, adabiyot, moda singari jabhalar qatori o'zbek tiliga bo'lgan munosabat, e'tiborda ham aks etmoqda. Hozirgi kunda xorijliklarning o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi va havasi kuchli. O'z faoliyatini O'zbekiston bilan bog'lagan turli soha: tijorat, tadbirkorlik, san'at, talim, fan vakillari davlat tilini mukammal bilish istagidalar. Ushbu holat, o'z navbatida, xorijliklarga o'zbek tili ta'limi borasida darsliklar taqchilligi muammosini keltirib chiqarmoqda.

Mazkur sohada bu kabi muammo vujudga kelishining o'ziga xos tarixiy-siyosiy sabablari mavjud. Xorijliklarni o'zbek tiliga o'rgatish asosan istiqloq davriga kelib, O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylanganidan so'ng boshlandi. Hobiq Sho'rolar Ittifoqi davrida o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish masalasiga nihoyatda yuzaki qaralgan, o'rta maktablarda nomigagina soatlar ajratilgan, talab ham shunga yarasha bo'lib, o'rta maktabdan keyin umuman bu mavzuga qaytilmagan.

80-yillarga kelib, bu sohada bir qadar jonlanish sezildi, atoqli tilshunos olimlarimiz Sh. Rahmatullayev, I. Kissen (I.A. Kissen. Sh. U. Rahmatullayev. *Узбекский язык для взрослых*. Т., O'qituvchi - 1990), E. Azlarov ("O'zbek tilini o'rganimiz"), R. Yo'l-doshev (R. Yuldashev. *Изучаем узбекский язык*. Т., O'qituvchi - 1996)larning bu boradagi xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim. Ular tomonidan yaratilgan qo'llanma, so'zlashgich va lug'atlar o'zbek tilini o'rganishni istovchilar uchun uzoq vaqt, mustaqillik davrining birinchi o'n yilligi davomida ham, asosiy darslik vazifasini o'tab keldi.

Istiqloq davrida o'zbek tilini faqat rus tili orqali emas, boshqa xorijiy tillar orqali o'rgatish masalasi kun tartibiga qo'yildi va mazkur ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan qator darsliklar vujudga keldi. Jumladan, A.Rafiyev, T.O'zturk, D. Nuriddinova-

ning "Chet elliklar uchun o'zbek tili", Y.Azizxonova, R.Tolipovalarning "O'zbek tili, Chet elliklar uchun amaliy kurs", N.Sharipova va Hanek Ykemaning "Marhamat" kabi kitoblarini keltirib o'tish lozim. Shuningdek, xorijda – Amerika, Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlarda ham o'zbek tilini o'rganish va o'rgatish bo'yicha talay ishlar qilindi. Bu singari sa'y-harakatlar o'zbek tilini o'rganishni istovchilarga ilk bosqichda ta'lim berishda ancha qulayliklar yaratdi.

Shunga qaramay, xorijliklarga mo'ljallangan bir necha bosqichli, salmoqli darsliklarga bo'lgan ehtiyoj to'la qondirilganicha yo'q, hozirgi axborot texnologiyalari davri darsliklar oldiga yangidan yangi talablar qo'yimoqda, dasrlik mualliflaridan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

O'zbek tili bo'yicha boshlang'ich bilimlarga ega bo'lgan xorijliklar o'z bilim hamda ko'nikmalarini chuqurlashtirish istagini bildirgan hollarda darslik hamda qo'llanmalar bilan bog'liq talay muammolar kelib chiqmoqda. O'zbek tili bo'yicha mavjud o'quv adabiyotlari, asosan, an'anaviy uslublarga asoslangan bo'lib, ular intensiv va mustaqil ta'lim olishga mo'ljallanmagan. Odatda, an'anaviy til o'qitishda ta'lim grammatik qoidalar asosida olib boriladi, so'ng grammatik mavzu mashqlar bilan mustahkamlanadi. Mashqlar asosan badiiy adabiyot asosida tuziladi va u faqat grammatik mavzuni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu esa o'rganuvchidan ma'lum lug'at boyligini talab qiladi. Hatto rusiyzabonlarga mo'ljallangan o'zbek tilidagi darsliklarda ham shu tamoyilga amal qilingan. Shu bois ham bu kabi darsliklarni o'zbek tilini o'rganishni istovchi xorijliklarga nafaqat ilk bosqichda, balki ma'lum lug'at boyligi to'plangan va muloqotga kirisha oladigan darajaga yetganda ham tavsiya qilishning imkoni yo'q.

Keyingi yillarda g'arb hamda boshqa xorijiy tillarni o'qitishning turli metodlari asosida til ta'limini tashkil etishga urinishlar kuzatildi. Jumladan, nomlari yuqorida tilga olib o'tilgan A. Rafiyev, T. O'z Turk, D. Nuriddinovalarning "Chet elliklar uchun o'zbek tili" ("Slim A.S" O'zbek-Turk litseyi Bosh Mudirligi Nashri. T.,1997) Sharipova va Hanek Ykemaning "Marhamat"(TDJTU,

T., 2002) kabi qo'llanmalari ana shunday sa'y-harakatlarning mahsulidir. Ularni bir bor nazardan o'tkazsak.

A. Rafiyev, T. O'zturk, D. Nuriddinova qalamiga mansub "Chet elliklar uchun o'zbek tili" til o'qitishning chet el tajribasidan kelib chiqqan holda yaratilgan ilk qo'llanma bo'lib, fikrimizcha, o'zbek tilini mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan (chunki kitobda bu haqda izoh berilmagan). Kitob ma'lum nutqiy mavzular asosida tuzilgan, grammatik material bayoniga maxsus o'rin ajratilmagan, u asosan dialoglar, matnlar yordamida o'zlashtiriladi. Har bir bob nutqiy mavzu (masalan, "Restoran qayerda?" "Topilmalar byurosi"... ) "O'qish" hamda "Takrorlash", ba'zan "Yozish" qismlaridan iborat. Bob bevosita muloqotdan yoki tayanch so'zlardan boshlanadi. Suratlar va surat ichidagi yozuvlar til o'rganishni yanada qulay va samarali bo'lishiga xizmat qilgan. Bob oxirida esa lug'at keltiriladi. Kitobda mashhur "English Grammar in Use", "Headway" singari tilni mustaqil o'rganishga mo'ljallangan qo'llanmalarning tajribalaridan foydalanilgani kishini quvontiradi. Yana shunisi ham diqqatga sazovor-ki, ushbu qo'llanma faqat bir tilda, ya'ni o'zbek tilida yozilgan. Unda lug'atni istisno qilganda, chet tilida izoh yo'q. Bunday usul til ta'limida samarali ekanligi hech kimga sir emas. Biroq ayni paytda, ba'zi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Agar kitob mustaqil til o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lsa, umuman, til bilmaydigan xorijlik, baribir, o'qituvchining ko'magiga muhtoj bo'ladi. Bundan tashqari, odatda, til mustaqil o'rganilganda, o'rganuvchi o'zini tekshirish imkoniga ega bo'lishi lozim, tajribada bunday kitoblar so'ngida "kalit" (ochqich)lar keltiriladi va ular yordamida mashqlarning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligi aniqlanadi. Kitobda bunday kalitlar berilmagan.

Til o'qitishda nutqiy mavzuning oldingi o'ringa chiqarilishi, grammatik mavzuni nutqiy mavzuga singdirib yuborilishi, shubhasiz, kitobning yutug'idir. Ayni paytda, grammatik izohning mavjud emasligi muayyan tushunmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Holbuki, xorij tajribasida nutqiy mavzu oldingi o'rinda turgan holda, qisqa va lo'nda grammatik tushuntirish ham taqdim

etiladi. Shu sababli "Chet elliklar uchun o'zbek tili" qo'llanmasini, bizningcha, o'qituvchiga yordamchi material sifatida taqdim qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Y. Azizxonova va R. Tolipova tomonidan yaratilgan "O'zbek tili. Chet elliklar uchun amaliy kurs" dasrligida o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning yangi, samaraliroq usullarini qo'llashga intilish seziladi. Mualliflar "o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitishdan farqli o'laroq o'zbek tili grammatikasi va leksikasi bo'yicha faqat lisoniy bilimlar berish emas, balki ularga bunday bilim asosida o'zbek tilini muloqot darajasida o'rgatish"ni maqsad qilib qo'yadilar va shundan kelib chiqib kommunikativ tamoyilga tayanadilar.

Darslik yigirmata mashg'ulotdan iborat bo'lib, muayyan tartibda tuzilgan. Har bir dars bevosita o'qish yoki tinglashdan boshlanadi va albatta, takrorlash lozimligi uqtiriladi. So'ng grammatik material beriladi, mavzu nomlanishida ham tilshunoslikda qabul qilingan atamalardan qochiladi. Masalan, "ko'rsatish olmoshi" o'ringa "tanishtirish, biron narsani ko'rsatish", qaratqich kelishigi o'rniga "qarashlilik ma'nosining ifodalanish" va h.k. Grammatik mavzu suhbat, mashq yordamida mustahkamlanadi.

Umuman, darslik puxta tuzilgan, kommunikativ tamoyilga izchil rioya qilingan. Boshlang'ich bosqichda zarur bo'lgan nutqiy mavzular qamrab olingan.

Ayni paytda kitobning muayyan cheklangan jihatlari ham mavjud. Darslik bir tilda, ya'ni o'zbek tilida yozilgan. Unda lug'at ham berilmagan. To'g'ri, mualliflar darslikdan o'qituvchi ko'magida foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tadilar. Ehtimol, chet elliklar uchun xorijiy, xususan, ingliz tili darsliklari tajribasini qo'llangandir. Biroq o'zbek tilini xorijliklarga o'qitish hali ilk bosqichda ekanligi, bu sohada ingliz tilida erkin tushuntirish darajasidagi ona tili o'qituvchilari oz ekanligini (ayniqsa, darslik yozilgan pallada) unutmash lozim.

Grammatik mavzularni tilshunoslik terminlarida emas, ular anglatayotgan ma'nosiga ko'ra nomlash yaxshi, biroq tajribada ularni o'z nomi bilan atash maqsadga muvofiq ekanligi ma'lum bo'lib qolyapti. Chunki til o'rganuvchiga "tanishtirish, biron nar-

sani ko'rsatish" deyish o'rniga "demonstrative pronouns" desangiz tezroq tushunadi va o'z tilidagisi bilan qiyoslaydi. Balki shunday nom yonida qavs ichida tilshunoslik terminini ham bergan ma'quldir.

"Marhamat (Uzbek Course book for Beginners)" qo'llanmasi yuqorida ko'rib o'tilgan kamchiliklar to'ldirilganligi bilan e'tiborga loyiq. Avvalo, kitob ingliz va o'zbek tillarida yozilgan, grammatik mavzu izohiga alohida va keng o'rin berilgan. Ingliz tilini bilmaydigan o'qituvchi ham undan bemalol foydalanishi mumkin. Muqaddimada qo'llanmaning maqsad va vazifalari, foydalanish usuli haqida batafsil ma'lumot berilgan, ham o'qituvchiga, ham til o'rganuvchiga mashg'ulotlar davomida kerak bo'ladigan talay foydali maslahatlar keltirilgan. "Marhamat" mualliflar qayd etganidek, besh yillik o'rganish va tajriba mahsuli bo'lganligi tufayli ancha puxta tuzilgan, bo'limlar muayyan tartib asosida qurilgan. Kitob besh bo'limdan iborat bo'lib har bir bobdan kutilgan maqsad aniq. Bo'lim quyidagi qismlardan iborat:

1. Yangi materialni tekst yoki dialog sifatida rasmlar yordamida taqdim etish.
2. Yangi so'z va so'z birikmalari berilgan lug'at.
3. Yangi materialni tushuntirish.
4. O'rgatilgan materialni turli mashqlar yordamida amaliyotda qo'llash.

Ko'rinadiki, mazkur qo'llanmada ilgari darsliklarda yetishmaydigan jihatlarni to'ldirish, jahon tajribasini tatbiq etishga urinish seziladi.

"Marhamat", mualliflarning o'zlari e'tirof etganlaridek, "o'zbek tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun boshlang'ich bosqichdagi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi kitob" ekanligi bilan ahamiyatlidir. U xorijliklarni milliy muhitga moslashishi, kundalik, maishiy muloqotlarga kirishuvida qo'l keladi, biroq kelgusida muayyan ilm-fan, kasb-hunlar yoki biznes sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lganlar uchun yetarli bilim hamda ko'nikma bera olmaydi.

Xorijda o'zbek tili bo'yicha yaratilgan darsliklarga ham to'xtalib o'tsak. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Amerika, Yaponiya,



Koreya singari mamlakatlarda tilimizni o'rgatuvchi darslik va qo'llanmalar mavjud bo'lib, ko'plab xorijliklar O'zbekistonga kelishdan oldin muayyan til tayyorgarligidan o'tmoqdalar. Ular orasida prof. H. Istmatullayev qalamiga mansub ikki kitobdan iborat salmoqli "Modern literary uzbek" (Indiana University Research Institute For Inner Asian Studies. Bloomington, Indiana – 1995) alohida ajralib turadi. O'zbek olimi tomonidan ingliz tilida yozilgan mazkur qo'llanma grammatik materialning batafsil va atroflicha yoritilganligi, AQSHda inglizabon kitobxonga o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha ilk hamda hozircha yagona qo'llanma ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Biroq, ayni paytda, unda ko'nglimiz to'lmaydigan qator e'tirozli jihatlar mavjud. Avvalo, mazkur kitobda darslik uchun muhim bo'lgan xolislik yetishmaydi, muallifning subyektiv nuqtayi nazari yetakchilik qiladi, real muhitdan uzilib qolganligi, ijtimoiy-ma'naviy jabhalardagi o'zgarishlardan, yangilanishlardan bexabarligi sezilib turadi. Buning ustiga hozirgi kunda eskirgan, o'z ahamiyatini yo'qotgan tushunchalar, realiyalarga murojaat qilinadi. Xalqning turmush darajasi, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odat, udumlardagi o'zgarishlar, zamon bilan bog'liq evrilishlar o'z aksini topmagan. Hozirgi kunda xorijda o'zbek tilini o'rganishda muqobili mavjud bo'lmagani sababli mazkur kitob asosiy manba bo'lib kelayotgani achinarli holdir.

Dunyoning yana bir yetakchi davlatlaridan biri bo'lmish Yaponiyada tilimizga ko'rsatilayotgan e'tibor va hurmat tahsinga sazovor, keyingi yillarda yapon hamkasblarimiz tomonida o'zbek tilini o'rganish bo'yicha bir qancha qo'llanma yaratilganligi buning yorqin dalilidir.

Kamasu Itaruning "Oson o'zbek tili" ("Oson o'zbek tili". Osaka, 2003) qo'llanmasi til o'rganishni boshlovchilar uchun ibtidoiy bilimlar berishga mo'ljallangan bo'lib 13 mashg'ulotdan iborat. Muallif mazkur bosqichda eng zarur bo'lgan grammatik mavzularni qamrab olishga harakat qilgan. Darslik ikki qismdan iborat. Birinchi qismda grammatik mavzular: o'zbek alifbosi tushuntirilganidan so'ng egalik, kelishik, zamon, son kabi kategoriyalar haqida yapon tilida imkon qadar batafsil ma'lumot beriladi. Ikkinchi qism

nutqiy mavzular: “Salomlashish”, “Murojaat”, “Fasllar”, “Oila” va h.k. jami 13ta dialog yoki matnni o‘z ichiga oladi.

“Oson o‘zbek tili” o‘zbek tilini o‘rganishga kirishayotgan yaponlar uchun ancha qulayliklarga ega, yapon tilida mavzuning batafsil tushuntirilishi, o‘z ona tili va boshqa tillar bilan qiyoslar, eng zarur nutqiy materiallarning mavjudligi kitobning yutug‘idir. Ayni paytda, darslikda qator tahrirtalab o‘rinlar, son-sanoqsiz imlo va uslubiy xatolar ham borki (masalan, “13-dars” o‘ringa “13-darslik”, “kelasi zamon” o‘rniga “kelajak zamon”, “biri” o‘rniga “birisi”, “gapira olaman” “gapirabilaman”, “sizning rasm olish mumkinmi” kabi), ular kitob o‘zbek muharriri nigohidan o‘tmasdan chop etilganligidan dalolat beradi.

O‘zbek tili bo‘yicha yapon til o‘rganuvchilari uchun qo‘llanmalar ichida Taiki Yoshimura, Juliboy Eltazarovlar tomonidan yaratilgan “An introduction to uzbek grammar and conversation” (Research Institute For World languages (RIWL/ Osaka University) – “O‘zbek tili grammatikasi va so‘zlashuviga kirish” alohida diqqatga sazovor.

Qo‘llanma “Marhamat” kitobidagi qator afzalliklarga ega. O‘zbek tili grammatikasi haqida yapon tilida atroflicha ma‘lumot berilgan, mavzularni yoritishda o‘ziga xos tartibdan foydalanilgan. O‘zbek tilidagi affikslar, ularning ma‘nosi va vazifasiga ko‘p o‘rin ajratilgan. Kitob matn hamda suhbatlar, mashqlarga boy.

Mazkur qo‘llanmada ham nutqiy mavzudan grammatik mavzuga o‘tish tamoyili qo‘llangan. “O‘zbekistonda fasllar”, “Doktor huzurida”, “Kasblar” singari sodda, tushunarli matnlar keltirilgan.

Biroq ushbu tamoyilga doim ham amal qilinavermaydi. Matnlar mazmun-mundarijasiga tizimli yondashuvning yo‘qligi darslikning yagona tamoyil asosiga qurilmaganidan dalolat beradi. Juda sodda, tez yodda qoladigan matnlar bilan bir qatorda o‘ta kitobiy leksikaga boy mavzudagi matnlar ham uchraydi. Ba‘zan matn grummatik hamda nutqiy maqsadga javob bergan holda, mazmun tomoniga uncha e‘tibor berilmaydi. Masalan, “Restoranda” matnidan olingan quyidagi parchaga e‘tibor bering.

“Ofisiant: Salatlardan nima istaysizlar?

Toʻlqin: Yangi uzilgan bodiring, koʻkatlardan salat *opkeling*.

Ofisiant: Xoʻp boʻladi. Spirtli ichimliklardan nima buyurasizlar?

Toʻlqin: Bugun ozroq aroq ichaylik, nima deysizlar?

Olim: Mayli, kishi boshiga 100 gramdan boʻlsin.

Toʻlqin: Demak, 300 gramm aroq ham olib keling”.

Parchadan koʻrinadiki, u bir qator imlo xatolariga ega (kursiv bilan koʻrsatilgan soʻzlar), buning ustiga milliy mentalitetga uncha xos boʻlmagan suhbat berilgan. Albatta, mazkur sahna kundalik hayotimizda mavjud va shunday vaziyatlarga chet elliklarning duch kelishi tabiiy. Biroq, bizningcha, bunday holatlarga darslik orqali oʻrgatish shart emas. Xorijliklar hayotda, shunday vaziyatlarda bunday holatlarning guvohi boʻlib, tabiiy ravishda oʻrganishi mumkin. Bundan tashqari oʻzbeklarda bunday hollarni yashirishga urinish, kattalardan xijolat boʻlish singari milliy zehniyatga xos tomonlar borki, ulardan chet elliklarni xabardor qilish zarar qilmaydi.

Qoʻllanmada matnlar tanlashda oddiydan murakkabga tamo-yiligiga asoslanilgan, lekin baʼzan matnda keng isteʼmolda boʻlmagan oʻta kitobiy soʻzlar uchraydi. Shuningdek, oʻzbek tilida soʻz yasovchi qoʻshimchalarga ham ancha keng oʻrin berilgan, har bir qoʻshimchani maʼnosi tushuntirilgan. Nisbat qoʻshimchalari ham shu tarzda beriladi. Bunday izohlar, albatta, foydali, lekin tilni boshlangʻich bosqichda oʻrganayotganlar uchun ogʻirlik qilishi mumkin.

Shimada Shizuoning qalamiga mansub “Oʻzbek tili grammatikasining boshlangʻich kursi” (2011 yil) kitobi ancha puxta ishlangan, grammatik mavzular ketma-ketligi yaxshi oʻylab chiqilgan, “Oson oʻzbek tili”dan farqli oʻlaroq, darhol egalik va keli-shik, zamon mavzularidan emas, maʼlum lugʻat berish, koʻplik, sifat, ot kesimli sodda konstruksiyalar, tasdiq va inkor, oʻrni payt va chiqish kelishigi singari mavzulardan boshlanadi va 10 darsga kelib feʼl zamonlari tushuntiriladi. Darslik muallifi oʻzbek tilini oʻqitish borasida yurtimiz va xorij olimlarining tajribasini ancha keng oʻrganganligi sezilib turadi. Kitob hajmi oldingisiga qara-

ganda kattaroq bo'lib, 38 mashg'ulotni o'z ichiga olgan, grammatik mavzular chuqur yoritilgan, usulbiy va imlo xatolaridan holi. Biroq darslik, asosan, grammatik mavzu asosida tartiblash-tirilgan, nutqiy material hech bir o'rinda mavzu darajasiga chiqarilmaydi. Unda ko'proq qisqa dialoglar beriladi va uchta mazmun va uslub jihatidan katta farq qiluvchi matn keltiriladi.

Shimada Shizuoning "O'zbek tili grammatikasining boshlang'ich kursi" kitobi, bizningcha, o'zbek tili grammatikasiga kirish darsligi sifatida qimmatlidir, xorijliklarni o'zbek tiliga o'rgatish, yangi muhitga moslashtirish maqsadiga esa yetarli darajada xizmat qila olmaydi. Yana bir holat ham e'tiborni talab qiladi, kitob 2011 yilda nashr qilingan bo'lsa-da, nima uchundir kiril alifbosida yozilgan.

Keyingi yillarda O'zbekiston bilan Koreya o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida koreyaliklarning o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan havas va ishtiyoqi tobora ortib bormoqda. Azamat Akbarov tomonidan yozilgan koreyaliklar uchun o'zbek tilidan qo'llanma (Pusan University of Foreign Studies (PUFS) Press, 2004) ana shu ehtiyojni qisman bo'lsa-da, qondirish maqsadiga qaratilgan. Qo'llanma 20ta darsdan iborat bo'lib, asosan, kundalik maishiy mavzularni qamrab oladi va yuqorida nomlari tilga olib o'tilgan ishlardagi kabi xorijliklarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, milliy muhitga moslashishda ko'maklashish uchun xizmat qiladi. Ushbu qo'llanma ham xorij tajribasidan unumli foydalanilgani, grammatik mavzuning til o'rganuvchining ona tilida tushuntirilishi, eng zarur nutqiy hamda grammatik mavzular qamrab olinganligi va h.k. bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, unda bir qator kamchiliklar uchraydi: dialog va matnlar sodda bo'lsa-da, "tanovul qilmoq", "taom" singari kitobiy leksikaga oid so'zlar, "xayrli kecha", "xudo yoringiz bo'lsin", "hech bir narsa yemadim", "ro'mol taqdi" singari o'zbekcha bo'lmagan jumlar kuzatiladi.

Xorijliklar uchun o'zbek tili ta'limidagi yana bir muammo texnik vositalardan foydalanish, audio va video materiallarini qo'llash, til ta'limini kompyuterlashtirish bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish

keng yo'lga qo'yilgani, til, xususan, xorijiy tillar ta'limida uning qanchalik samarali ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

O'zbek tilini o'qitishda ham mazkur sohada oz bo'lsa-da, ma'lum ishlar qilingan, til o'rganayotganlar uchun audiokurslar, qo'llanmaga ilova tariqasidagi ovozli disklar asta-sekin tatbiq etilmoqda. Til o'rganuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mazkur disklar ham talaffuz, lug'at tanlash bilan bog'liq kamchiliklardan xoli emas.

Xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha yaratilgan qo'llanmalar tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

- Hozirgi kundagi mavjud qo'llanmalar tilni o'rgatishda faqat boshlang'ich manba sifatida xizmat qilmoqda.

- Boshlang'ich manba sifatidagi qo'llanmalarda grammatik materialni tizimlashtirishda yagona tamoyil yo'q. (matnlarda hali o'tilmagan grammatik material uchraydi).

- Nafaqat chet elliklar, balki O'zbekistondagi rusiyabon fuqarolar uchun ham o'zbek tilini bosqichma-bosqich o'rganishning kompleks tizimi mavjud emas.

- Leksik birliklarning berilishida va nutqiy mavzularning tanlanishida bir qator kamchiliklar mavjud. Tilda keng iste'molda bo'lmagan so'zlar, faqat maishiy mavzuga oid matnlar va dialoglar yoki murakkab badiiy matnlarning berilishi bilan til o'rganishdagi tizimli yondashuv, ya'ni tilni bosqichma-bosqich o'rganish prinsipi buzilgan.

- Milliy madaniyat, mentalitet, udumlar, an'analar, qadriyatlar haqida yetarli tasavvur berilmaydi.

- Disklar orqali til o'rganishga mo'ljallangan dasturlar ham mukammal emas.

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohada taraqqiy etib borayotganligini ko'plab dalillar bilan asoslash mumkin. O'zbekiston bilan tanishish, uning taraqqiyot yo'li, milliy merosi, madaniyati, milliy tilini o'rganish orqali xalqimiz hayoti va mamlakatimiz yutuqlari, ilm-fani va boshqa sohalari bilan yaqindan tanishishga qiziqayotgan xorijlik turli kasb egalari soni tobora

ko'payib bormoqda. Xususan, til orqali milliy madaniyat, mentalitetni chuqurroq o'rganish, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy sohalarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilib yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijliklar uchun zamonaviy talablar asosida ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratish, birinchi navbatda, o'zbek tili mutaxassislarining vazifasidir.

Mazkur muammo ustidagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, til o'rgatish masalasiga tizimli yondashuv zarur, zero, zamonaviy darsliklarga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri ham aynan kompleks tizimli yondashuvdir.

Shu sababdan o'zbek tilini bosqichma-bosqich o'rganishning kompleks tizimni ishlab chiqish va uni amalda tatbiq etish uchun mukammal elektron darslik-majmua yaratish dolzarb masaladir.

Chet davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarida xorijliklar ta'lim olishi/mehnat qilishiga ko'maklashish maqsadida tashkillashtirilgan TOEFL (AQSH, test of English for Foreign Learners –xorijlik o'rganuvchilar uchun ingliz tilidan sinov tizimi) IELTS (Buyuk Britaniya, International English Testing System – xalqaro ingliz tili sinov tizimi), YÖS (Turkiya, YABANCI ÖRENCİ SINAVI-chet el o'rganuvchilar uchun imtihon)ga tayyorlash kurslari mavjud ekanligini bilamiz. Lekin bugungi kunda O'zbekistonda o'zbek tili bo'yicha bilimlarni baholashning shunday tizimi va zamonaviy darslik-majmualar ishlab chiqilmagan. Shunday talablarga javob beradigan darslik-majmuaning yaratilishi o'zbek tilini o'rganuvchilarning O'zbekiston oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi, ilmiy faoliyatga jalb etilishi, umuman, O'zbekistonda turli sohalarda ishlashi uchun shu kabi imtihon-sinov tizimining yaratilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirda O'zbekiston madaniyati, tarixi, fani va o'zbek tili o'qitilayotgan Koreyaning Seul universiteti, Xankuk universiteti, Hindistonning Jamiya milliya universiteti, Yaponiyaning Tokio chet tillar universiteti, AQSHning Indiana universiteti va Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida hamda O'zbekistonning turli sohalari tadqiq etilayotgan ilmiy markazlarda bunday mukammal dastur tizimi va darslik-majmuaga ehtiyoj katta. Elektron darslik-

majmua o'zbek tili bo'yicha kompleks bilim berish, shuningdek, mustaqil ta'lim olish uchun ham mo'ljallangan bo'lib, o'rganish jarayonining yuqori bosqichida O'zbekiston haqida mamlakatshunoslik, madaniyat, adabiyot, san'at bo'yicha ham keng ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda o'zbek tilini xorijliklarga intensiv o'rgatish tizimini ishlab chiqish konsepsiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. "O'zbek tilini xorijliklarga intensiv o'rgatish" ta'lim dasturini ishlab chiqish; (2 bosqichdan iborat bo'lib, 1-bosqichda nutqiy mavzu va nutqiy vaziyatlarga mos grammatik material tanlanib, eng sodda gap qurilmalari yordamida ilk so'zlashuv ko'nikmalari va ma'lum nutqiy mavzularda o'z fikrini ifodalay olishni shakllantirish ko'zda tutiladi, ya'ni grammatik material vosita vazifasini bajaradi. 2-bosqichda esa grammatika bilimlar semantik-sintaktik mavzularga guruhlagan holda sodda va murakkab so'z birikmalari va gap qoliplari shaklida berilib, ular o'rtasidagi uslubiy, mazmuniy farqni turli vaziyatlar orqali tushuntirish ko'zda tutiladi. Bunda mavzular funksional-kommunikativ majmualar shaklida berilib, gap qurilmalari turli mezonlar asosida, masalan, soddadan murakkabga qarab yoki nutq uslublarida qo'llanishiga qarab ham guruhlanadi).

2. Fonetik kurs va eng sodda gap qurilmalari yordamida ilk so'zlashuv ko'nikmalarini shakllantirish uchun dars ishlanmalari yaratish.

3. An'anaviy bo'limlar ketma-ketligida emas, balki grammatik bilimlarni semantik-sintaktik mavzularga guruhlagan holda sodda va murakkab so'z birikmalari hamda gap qoliplari komplekslari asosida Grammatika kursi yaratish (sharq va g'arb tillariga tarjima qilish).

4. O'zbek tilida ilmiy-ommabop material asosida tilning 4 aspekti – o'qish, eshitish, gapirish, yozish bo'yicha kompleks yaratish. Har bir bosqichning o'z leksik minimumini tavsiya etish.

5. O'zbek tilini bosqichma-bosqich o'rganishning kompleks tizimni ishlab chiqish va uni amalda tatbiq etish uchun elektron darslik-majmua yaratish.

## O'ZBEK TILINI INTENSIV O'QITISH DASTURI (Boshlang'ich bosqich)

Ushbu dastur tilni birinchi bosqichda o'rganayotgan chet ellik talabalarga mo'ljallangan bo'lib, o'zbek tilini intensiv ravishda sodda gap qurilmalari asosida o'qitish orqali og'zaki nutqni shakllantirishdan iborat. Dasturda talabalarning ma'lum nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda o'zbek tilida ifoda etish va bu tilda mustaqil so'zlashish ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohada taraqqiy etib borayotganligini ko'plab dalillar bilan asoslash mumkin. O'zbekiston bilan tanishish, uning taraqqiyot yo'li, milliy merosi, madaniyati, milliy tilini o'rganish orqali xalqimiz hayoti va mamlakatimiz yutuqlari, ilm-fani va boshqa sohalari bilan yaqindan tanishishga qiziqayotgan xorijlik turli kasb egalari soni tobora ko'payib bormoqda. Xususan, til orqali milliy mentalitetni chuqurroq o'rganish, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy sohalarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilib yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijliklar uchun zamonaviy talablar asosida ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratish, birinchi navbatda, o'zbek tili mutaxassislarining vazifasidir.

Hozirda Koreya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda O'zbekistonni mamlakatshunoslik yo'nalishi doirasida o'rganayotgan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar mavjud. Mazkur markazlardan respublikamiz oliy ta'lim muassasalariga va ilmiy tadqiqot institutlariga tashrif buyurgan professor-o'qituvchilar, izlanuvchilar, talabalar, shuningdek, O'zbekistonda o'z biznes faoliyatini yuritmoqchi bo'lgan ko'plab ishbilarmonlar o'zbek tilini o'rganish istagini bildirmoqda. Shu maqsadda o'zbek tilini intensiv o'qitishning tizimli yon-



dashuvini ta'minlagan holda o'quv dasturini ishlab chiqish zarurati bor. Hozirgi kundagi mavjud dastur va o'quv adabiyotlari bugunda eskirgan uslublar asosida bo'lib, ular asosida intensiv va mustaqil ta'lim olish mushkul. Ushbu qo'llanmalardagi grammatik materiallar, leksik birliklar va nutqiy mavzularning tanlanishidagi yondashuv asosli ishlab chiqilmagan. Tavsiya etilayotgan dasturda o'zbek tili ta'limiga tizimli yondashish orqali til o'rgatish jarayonini kompleks ravishda tashkil etish maqsad qilingan. Umuman, o'zbek tilini xorijliklarga o'qitishni 3 bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu dastur o'zbek tilini intensiv o'qitishning 1-bosqichi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda eng oson grammatik qurilmalar va nutqiy material orqali o'zbek tilini o'rgatishning tizimli yondashuvi aks ettirilgan. Dasturning maqsadi grammatik, leksik bilimlar asosida o'zbek tilini muloqot darajasida o'rgatish, nutqiy ko'nikma va malakani hosil qilishdir.

Mazkur dastur ko'p yillar davomida o'zbek tilini o'rgatish tajribasi asosida yaratildi. Dasturning aprabatsion tajribasi shuni ko'rsatdiki, chet ellik talabalar tilni oz muddatda egallab, sodda qurilmalardan foydalangan holda o'z fikrlarini bildirib, o'zbek tilida muloqotga kirisha oldilar.

## **1. O'ZBEK TILINI O'RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Ushbu dastur tilni birinchi bosqichda o'rganayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, o'zbek tilini intensiv ravishda sodda gap qurilmalari asosida o'qitish orqali og'zaki nutqni shakllantirishdan iborat. Dasturda talabalarning o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda o'zbek tilida ifoda eta olish va bu tilda chegaralangan leksik manba yordamida so'zlashish ko'nikmalarini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.


Bu vazifani amalga oshirishda ta'limning turli metodlaridan ijodiy foydalaniladi. O'zbek tilini o'qitishning dastlabki bosqichida ta'lim usuli, asosan, deduktivdir. Har bir mashg'ulot taxminan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Leksik birliklar va nutqiy qoliplarni o'zlashtirish
2. Yangi grammatik materialni o'zlashtirish.
3. Yangi material va ko'nikmalarni mustahkamlash va amalda
4. qo'llash. (mashq bajarish orqali)
5. Matn ustida ishlash
6. Og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish

O'zbek tili ta'limi jarayonida nutq mavzulari matniga doir mazmun va ma'noni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'z va so'z birikmalari, gap modellari, ularni shakllantiruvchi leksik, grammatik vositalardan foydalanishni o'rgatish ko'zda tutilgan. Til o'qitishning dastlabki bosqichida o'rganuvchi hali matnni o'zlashtirishga tayyor bo'lmaganini hisobga olgan holda, dars jarayoni quyidagicha tizimlashtirildi.

## O'zbek tilini intensiv o'rgatishda dars jarayoning tashkil qilinishi


### I-bosqich



Demak, o'zbek tilini intensiv o'qitishning 1-bosqichida ma'lum nutqiy mavzular doirasida leksik birliklar tanlanib, ularni ifodalashda zarur bo'lgan gap qoliplarining grammatik vositalari o'zlashtirilgandan keyin, matn bilan ishlanadi.

Ta'limning 2-bosqichida esa talabaning boshlang'ich til bilish ko'nikmalari shakllangani uchun va ma'lum leksik bazaga ega bo'lganini hisobga olgan holda dars jarayoni matn asosiga quriladi va quyidagicha tizimlashtiriladi:

## 2-bosqich



## LUG'AT BOYLIGI VA OG'ZAKI NUTQ

Lug'at og'zaki va yozma nutqni o'stirishda asosiy tayanch hisoblanadi. Yangi so'zlarni tushuntirish, ularni nutqda mustahkamlash va faollashtirish, ilgari o'zlashtirilgan so'zlarni qayta esga tushirish orqali so'z boyligi oshirib boriladi. Bunda leksik birliklarni nutqiy mavzuga mos ravishda tanlash, til o'rganishning 1-bosqichida zarur umumiste'moldagi leksemalarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Leksik material yaxlit matnni shakllantirish uchun mos tanlanishi zarur. Masalan, "Tanishuv", "Mening kasbim", "Men safardaman" kabi 1-bosqichda o'rganiladigan

nutqiy mavzular uchun aynan tematik mos leksik material berish o'qitishga tizimli yondashuvni ta'minlaydi.

Og'zaki nutqni shakllantirish quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi lozim:

Ma'lum nutqiy mavzu uchun leksik material matn asosida o'rganiladi.

Grammatik material o'zlashtirilgach, savol-javob, suhbat orqali leksik material mustahkamlanadi. Talabanning og'zaki nutqini shakllantirish uchun maxsus mashqlar bajariladi. Nutqiy qoliplarini ma'lum vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda talaffuz me'yorlarini o'rgatish uchun maxsus mashqlar beriladi.

## YOZMA NUTQ

Til o'rganishning ilk bosqichini yozma nutqni shakllantirish bilan boshlash o'rganuvchiga grammatik materialni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Sintaktik qurilmalarning tuzilishini, gapda gap bo'laklarining tartibini o'rganishda yozma mashqlarni bajarish, savollarga yozma ravishda javob berish, gap va matnlarni tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Yozuv ishlari talabalarining og'zaki nutq malakalarini o'stirishga va hosil bo'lgan ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning bilim darajasini har tomonlama aniqlashga yordam beradi. Shuning uchun yozma nutqni egallash jarayoni og'zaki nutq bilan birga olib boriladi.

## GRAMMATIK BILIM

Grammatik materialni o'rgatish og'zaki va yozma nutqni o'stirishga xizmat qiladi. O'zbek tilidan berilgan nazariy bilim nutqni egallash vositasi bo'lib, talabalar uni amalda qo'llay olishlari lozim.

O'zbek tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun tilni bosqichma-bosqich o'rganishning kompleks tizimini yaratishda grammatik materialni berish tartibi (guruhlash) katta ahamiyatga ega.

Xususan, mavjud darslik-qo'llanmalarining aksariyatida faqat grammatikaga doir material va o'qish uchun matn beriladi, xolos. Matnning grammatik material bilan bog'liqligi aksariyat holda hisobga olinmaydi. Bundan tashqari til o'qitishning boshlang'ich bosqichida elementar grammatik bilimlar alohida dars sifatida berilgan bo'lib, ularni qo'llashda boshqa grammatik materialni ishlatish zarurati tug'iladi. Shuning uchun intensiv o'qitishda ma'lum nutqiy vaziyatlar uchun grammatik materiallar "kompleksi"ni berish va birinchi darsdanoq ular yordamida nutqni shakllantirishga ahamiyatni qaratish lozim.

Tilni mukammal o'rgatishda kompleks tizimli yondashuv zamonaviy darsliklarga qo'yiladigan eng muhim talablardan biridir. Bu maqsadni amalga oshirishdagi birinchi qadam tilning grammatika kursini an'anaviy bo'limlar ketma-ketligida emas, balki grammatik bilimlarni semantik-sintaktik mavzularga guruhlagan holda sodda va murakkab so'z birikmalari hamda gap qoliplari komplekslari asosida yaratishdir. Zero, zamonaviy o'qitish texnologiyalari va yangi yondashuvlar tilni o'rgatishning oson va intensiv yo'llarini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Shu maqsadda 1-bosqichda nutqiy mavzu va nutqiy vaziyatlarga mos grammatik material tanlanib, eng sodda gap qurilmalari yordamida ilk so'zlashuv ko'nikmalari va ma'lum nutqiy mavzularda o'z fikrini ifodalay olishni shakllantirish ko'zda tutiladi, ya'ni grammatik material vosita vazifasini bajaradi.

2-bosqichda esa grammatik bilimlar semantik-sintaktik mavzularga guruhlangan holda sodda va murakkab so'z birikmalari va gap qoliplari shaklida berilib, ular o'rtasidagi uslubiy, mazmuniy farqni turli vaziyatlar orqali tushuntirish ko'zda tutiladi. Bunda mavzular funksional-kommunikativ majmualar shaklida berilib, gap qurilmalari turli mezonlar asosida, masalan, soddadan murakkabga qarab yoki nutq uslublarida qo'llanishiga qarab ham guruhlanishi maqsadga muvofiqdir.

Til qoidalarini tushuntirish grammatik topshiriqni bajartirishda shakl va ma'no birligidan kelib chiqilsa, olingan bilim oson va puxta o'zlashtiriladi.

Shunga ko‘ra, darsda talabalar bilan tahlil qilib o‘zlashtiriladigan nutqiy mavzular til o‘rganuvchining tilni o‘rganishdan maqsadi xarakteridan kelib chiqilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Grammatik ma‘lumotlar orfografiya va punktuatsiyani o‘rganish uchun ham asos bo‘ladi.

### **TALABA BILIMIGA VA KO‘NIKMASIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

- Yangi so‘zlarni yodlash, lug‘at zaxirasini oshirib borish;
- Grammatik materialni o‘zlashtirib, uni nutqda qo‘llay olish ko‘nikmasini hosil qilish;
- O‘qish, o‘qib tushunish, to‘g‘ri talaffuz qilish me‘yorlarini o‘rganish;
- Yozma nutqini shakllantirish, savollarga aniq, to‘liq javob bera olish;
- O‘z fikrini erkin, aniq va to‘g‘ri bayon eta olish;
- O‘qigan va eshitgan materialini tahlil qila olish va mulo-haza-mushohada yurita olish;

Mazkur dastur til o‘rganishning funksional-semantik tamoyili asosiga qurilgan bo‘lib, material ustida ishlash talabaga eng muhim va keng iste‘moldagi leksik materialni o‘rgatish bilan qatorda uning yurtimiz, milliy madaniyatimiz bo‘yicha dunyoqarashini shakllantirishda, yangi ma‘lumotlar berishda, talabaning og‘zaki nutqini shakllantirishda, o‘z nuqtayi nazarini bildirishda katta ahamiyat kasb etadi.

**O'ZBEK TILI DARSLARI MAVZULARINING SOATLAR  
TAQSIMOTI (50 soat)**

Ajratilgan soat	Leksik material	Nutqiy mavzu	Grammatik material	Sintaktik qurilmalar
4 soat	<p><i>Salom. Yaxshimisiz. O'tiring. Darsni boshlaymiz. Kitobni o'qing. Yangi dars. Eshiting. Tushundingizmi? Men tushundim. Yo'q, tushunmadim, Qaytaring. Daftaringizga yozing. Savolingiz bormi? Savolim bor. So'rasam maylimi? Uy ishi. Yodlang. Dars tugadi. Ertagacha xayr.</i></p>	<p><b>Muomala uchun va dars jarayonida qo'llaniladigan turg'un qoliqlar</b></p>	<p>O'zbek alifbosi Fonetik kurs Buyruq-istak maylining 2-shaxs shakli Inkor shakli</p>	<p>-gin, -ing. -ma, -mang,</p>
6 soat	<p>Kishilik olmoshlari So'roq olmoshlari Ko'rsatish olmoshlari Miqdor-daraja ravishlari O'zlik olmoshi <i>oila, ota, ona, aka, uka, opa, singil, ism, katta, kichik, do'st, dugona, shahar, uy, chiroyli, kasb, o'qituvchi, yaxshi, yomon, qiziqarli, bor, yo'q, ko'p, kam, ish, odam, yosh, xursand, dars, vaqt, o'zim, lekin, va, o'zbek, xorijiy, til, chet ellik, juda, har</i></p>	<p><b>Tanishuv. O'zim haqimda.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mening oilam.</li> <li>• Yangi uchrashuvlar</li> </ul>	<p>1. Shaxs va predmetning ifodalanishi (zamonni farqlagan holda) 2. Qarashlilik ma'nosining ifodalanishi - 3. Predmetning o'rnini, tegishlilikini ifodalash 4. Predmet belgisini ifodalash 5. Ko'plik shaklining ifodalanishi</p>	<p>Bu kim? Bu nima? Bu qanday? man; -san; -miz; -siz: -lar Kim edi? Nima edi? Qayerliksiz?/ Qayerdانسiz? -(i)m, -(i)ng, -i(-si), -(i)miz, -(i)ngiz, -(i)lari Mening ....-im -niki -ning Qayerda?</p>



	<p><i>kuni, esa, gapirmoq, yoki, bekat, xona, sumka, ko'cha, albatta, savol, kitob, daftar, katta, kichik/ kichkina, uzun, qisqa, yangi, eski, ochiq, yopiq, arzon, qimmat, chiroyli, issiq, sovuq, yaqin, uzoq, toza, iflos.</i></p>			<p>Menda.....b or Qayerda nima bor? -lar</p>
8 soat	<p>O'rin-joy otlari O'rin ravishlari Payt ravishlari Quyidagi fe'llar: <i>boshlamoq, tamomlamoq, (tugatmoq), kelmoq, ketmoq, bo'lmoq, bormoq, kirmoq, chiqmoq, ochmoq, yopmoq, o'tirmoq, turmoq, yurmoq, yotmoq, qilmoq, yashamoq, yuvinmoq, kiyinmoq, yechinmoq, ichmoq, yemoq (ovqatlanmoq), tanishmoq, uchrashmoq, uchratmoq, bermoq, olmoq, olib kelmoq, sotib olmoq, o'qimoq, o'rganmoq, o'qitmoq, o'rgatmoq, bajarmoq, ko'rmoq, ko'rsatmoq,</i></p>	<p><b>Vatanim.</b> <b>Men tug'ilgan joy.</b> • Nima qayerda joylashgan? Iqlim. Fasllar. Ob-havo.</p>	<p>I. O'tgan zamondagi harakatni ifodalash II. Doimiy harakat va kelasi zamonda bo'ladigan harakatni ifodalash III. Predmetning o'rini, harakatning yo'nalishini qo'shimchalar orqali ifodalash IV. Ko'makchilar qo'llanishi V. Uzoq o'tgan zamon (-di va -gan shakllarining farqi) VI. Sabab ma'nosini ifodalash</p>	<p>+ (-ma) di + (-m; -ng; -k; -lar; + (-ma)-y/-a + (-man; -san; -di; -miz; -siz; -lar;) qayerga? qayerda? ..-ning + oldida /yonida/tagid a/orqasida/ro'parasida ...-gan + (-man, -san, -miz, -siz) chunki, shuning uchun</p>

	<i>qaramoq, yozmoq, yodlamoq (so'zlarni)</i>			
6 soat	<p><i>Quyidagi fe'llar:</i>  <i>gapirmoq</i>  <i>(so'zlamoq, aytib bermoq, so'zlab bermoq), aytmoq</i>  <i>(demoq),</i>  <i>gaplashmoq</i>  <i>(suhbatlashmoq),</i>  <i>eshitmoq</i>  <i>(tinglamoq),</i>  <i>so'ramoq, javob bermoq,</i>  <i>tekshirmoq,</i>  <i>qaytarmoq</i>  <i>(takrorlamoq),</i>  <i>tushunmoq, tushuntir moq,</i>  <i>tarjima qilmoq,</i>  <i>to'ldirmoq,</i>  <i>e'tibor bermoq,</i>  <i>ehtiyot bo'lmoq,</i>  <i>bilmoq,</i>  <i>shug'ullanmoq,</i>  <i>tayyorlamoq,</i>  <i>unutmoq,</i>  <i>eslamoq, qo'ymoq,</i>  <i>chizmoq,</i>  <i>yordamlashmoq</i>  <i>(yordam bermoq),</i>  <i>xato qilmoq</i>  <i>(adashmoq),</i>  <i>tuzatmoq</i>  <i>(to'g'irlamoq),</i>  <i>qolmoq, qo'ng'iroq qilmoq,</i>  <i>tuzmoq, ishlamoq,</i>  <i>ifodalamoq,</i>  <i>charchamoq,</i>  <i>dam olmoq,</i>  <i>ko'chirmoq,</i></p>	<p><b>Faoliyat.</b>  <b>Mening kasbim.</b>  • Dasr faoliyati  Nima bilan shug'ullanasi z?</p>	<p>1. Buyruq-iltimos ma'nolarini ifodalash  2. Nutq jarayonidagi harakatni ifodalash.  3. Predmet obyektini qo'shimchalar orqali ifodalash</p>	<p>1. -(a)y, -(a)yclic  -gin, -(i)ng  -sin, -sinlar;  2. (-ma) + yap  (-man, -san, -ti, -miz, -siz, -tilar)  3. -ni  o'rganmoq</p>

	<i>o'ylamoq, kechikmoq, bahslashmoq, shoshmoq, o'tmoq xohlamoq (istamoq) umid qilmoq</i>			
<b>6 soat</b>	Holat ravishlari	<b>Ta'lim. Mening universitetim.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston va xorijiy mamlakat yoshlari.</li> <li>• Talabalar dunyosi</li> <li>• Sizning yurtiingizda ta'lim tizimi qanday?</li> </ul> Yoshlar bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazadilar?	I. Predmet belgisini ifodalash yo'llari. Predmet belgisini harakati orqali ifodalash Darajalash. Qiyoslash ma'nolari II. Shart ma'nosini ifodalash yo'llari	1.- roq -ga qaraganda -ga nisbatan 2. (ma)-gan/, (a)yotgan, (-a/y)digan 3. Agar.....+ -sa, .....
<b>12 soat</b>	<i>Savdolashmoq, tanlamoq, meva va sabzavot nomlari, qidirmoq, topmoq, sotib olmoq. sut-go'sht mahsulotlari, ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va attorlok mollari; Milliy taomlar nomlari; Sayohat qilmoq, harita, qadimiy yodgorliklar, minora, masjid, yo'l haqi, tarixiy joylar.</i>	<b>Sayohat. Men safardaman.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Bozorda</li> <li>• Oshxonada</li> <li>• Qadimiy shaharlar bo'ylab sayohat</li> <li>• Ilk taassurotlar</li> <li>• Menga notanish dunyo</li> <li>• Shifoxona</li> </ul>	I. Maqsad va zaruriyat ma'nosini ifodalash. II. Xohish-istak ma'nosini ifodalash III. Chegaralash ma'nosining ifodalanishi IV. Gumon, noaniqlik, faraz ma'nolarini ifodalash V. Son. Vaqtni	1. ish + (e.q.)+ kerak / mumkin / shart 2. -a/-y + olmoq 3. -moqchi; -ish+ -ni + xohlamoq 4. -gacha -guncha 5. -sa kerak (ehtimol, balki)

		da	ifodalash.	
6 soat	Payt ravishlari Milliy an'analar, bayram va urf- odatlar nomlari	<b>Milliy madaniyat va urf-odatlar</b> • Juda qiziq • Mehmonda • Ehtiyoj va talab • O'zbek urf-odatlari	I. Payt ma'nosining ifodalanishi II. Monelikni ifodalash III. Maqsad ma'nosini ifodalash	1. -ganda -gandan keyin -ishdan oldin 2. Menga yoqdi/yoqma di 3. -ish /-maslik uchun
2 soat		Xayrlashuv "Mening O'zbekiston ga safarim", "Tarixiy obidalar", "Kelajak rejalarim", "O'zbek tilini o'rganish oson bo'ldimi?" kabi mavzular bo'yicha savollar tayyorlash. Suhbat.		

# O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

## 1-MAVZU

### 1. Muomala uchun va dars jarayonida qo'llaniladigan turg'un qoliplar

“Salom. Yaxshimisiz. O'tiring. Darsni boshlaymiz. Kitobni o'qing .yangi dars. Eshiting. Tushudingizmi? Men tushundim. Yo'q, tushunmadim, Qaytaring. Daftaringizga yozing. Savolingiz bormi? Savolim bor. So'rasam maylimi? Uy ishi. Yodlang. Dars tugadi. Ertagacha xayr” kabi dars jarayonida qo'llaniladigan so'z va birikmalarni o'rgatish (tarjimasini berish bilan).

O'zbek tilining fonetik kursi. O'zbek alifbosi bilan tanishtirish. O'zbek tilining tovushlar tizimi. O'zbek tilidagi o'ziga xos tovushlar talaffuzi. q', g', o', ng tovushlar ta'rifi. O'zbek tilida unli tovushlar tasnifi, ularning talaffuziagi o'ziga xosliklar. o', o tovushlari talaffuzi ustida mashqlar. Undosh tovushlar ( q, g', h tovushlari) talaffuzi va imlosi. h va x harflari imlosi. O' va o tovushlarining talaffuzidagi farq ustida mashq bajarish. h va x, q va k tovushlarini farqlash ko'nikmasi hosil qilish yuzasidan mashqlar bajarish. G' tovushining talaffuzi va imlosi ustida ishlash. Buyruq-istak maylining 2-shaxs shakli.

## 2-MAVZU

### Tanishuv. O'zim haqimda

Mening oilam.

Yangi uchrashuvlar

Shaxs va predmetning ifodalanishi. So'roq olmoshlari. Bu nima? Bu kim? Ko'rsatish olmoshlari. Ko'plik shaklining ifodalanishi. Ko'plikni leksik usul bilan ifodalash yo'llari. Miqdor-daraja ravishlari. Kishilik olmoshlari. Shaxsni ifodalashda bog'lamalarning qo'llanishi. “Emas” to'liqsiz fe'lining vazifasi. -lik /-dan qo'shimchasining qo'llanish vazifasi. Qayerliksiz? Qayerdانسiz? Qarashlilik ma'nosining ifodalanishi. Egalik qo'shimchalarining vazifasi. –niki qarashlilik qo'shimchasining ishla-

tilishidagi o'ziga xos jihatlari. O'zlik olmoshi. Predmetning o'rnini ifodalash. O'rin-payt kelishigining qo'llanishi. "Menda ..bor/yo'q" qurilmasining qo'llanilishi. Predmet belgisini ifodalash. Eng ko'p ishlatiladigan sifatlar.

### 3-MAVZU

#### **Vatanim. Men tug'ilgan joy**

Nima qayerda joylashgan?

O'zbekistonning iqlimi. Yil fasllar. Oy va kun

Ob-havo haqida

O'zbek tilida o'tgan zamondagi harakatni ifodalash (-di shaklining qo'llanish holatlari). O'tgan zamonning bo'lishsiz shakli. Doimiy harakat va kelasi zamonda bo'ladigan harakatni ifodalash va ma'no farqliklari. Bo'lishsizlik shakli. Predmetning o'rnini, harakatning yo'nalishini qo'shimchalar orqali ifodalash. Kelishik qo'shimchalarining qo'llanilishi. O'rin-joy ma'nosini ifodalashda ko'makchilarning qo'llanilishi. Uzoq o'tgan zamon shakli. -di va -gan shakllarining qo'llanilishidagi farqlar. Sabab ma'nosini ifodalash (chunki, shuning uchun yordamida).

### 4-MAVZU

#### **Faoliyat. Mening kasbim**

Dars faoliyati

Nima bilan shug'ullanasiz?

Buyruq-iltimos ma'nolarini ifodalash yo'llari. Buyruq maylining qo'llanilishidagi semantik xususiyatlar. Predmet obyektini qo'shimchalar orqali ifodalash. Tushum kelishigining qo'llanilishi. Nutq jarayonidagi harakatni ifodalash (-yap shaklining tuslanishi). Zamon shakllarining qo'llanilishidagi farq qiladigan jihatlari ("doimo o'qiyman" va "hozir o'qiyapman")

## 5-MAVZU

### Ta'lim. Mening universitetim

O'zbekiston va xorijiy mamlakat yoshlari.

Talabalar dunyosi

Sizda ta'lim tizimi qanday?

Yoshlar bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazadilar?

Predmet belgisini ifodalash yo'llari. Sifat darajalari.

Darajalash. Qiyoslash ma'nolari. –ga qaraganda, –ga nisbatan shakllarining qo'llanilishi. Predmet belgisini harakati orqali ifodalash. Sifatdoshlarda zamon ma'nosining ifodalanishi. Shart ma'nosini ifodalash yo'llari. (-sa shart maylining tuslanishi).

## 6-MAVZU

### Sayohat. Men safardaman.

Bozorda

Oshxonada

Shifokor huzurida

Qadimiy shaharlar bo'ylab sayohat

Ilk taassurotlar

Menga notanish dunyo

Son. Predmet va shaxsni donalab ifodalsh. Shaxs va predmetning taxminiy miqdorini va taxminiy vaqtini ifodalash. Tartib sonlarning yasalishi. Vaqtini ifodalash. Maqsad va zaruriyat ma'nosini ifodalash. Kerak, lozim, shart, mumkin modal so'zlarining nutqda qo'llanish shakllari. "olmoq" ko'makchi fe'lining vazifasi. Xohish-istak ma'nosini ifodalash. Chegaralash ma'nosining ifodalanishi. –gacha va –guncha shakllarining qo'llanishidagi farqli jihatlar. Gumon, noaniqlik, faraz ma'nolarini modal so'zlar va "kerak" yordamida ifodalash yo'llari.

## 7-MAVZU

### Milliy madaniyat va urf-odatlar

Juda qiziq

Mehmonda

Ehtiyoj va talab

O‘zbek urf-odatlari

Payt ma’nosini “-ganda”, “-gandan keyin” shakllari yordamida ifodalanishi. Maqsad ma’nosini uchun ko‘makchisi yordamida ifodalash usuli. “Menga bu yoqdi” shakli yordamida monelikni ifodalash.

## 8-MAVZU

### Xayrlashuv

“Mening O‘zbekistonga safarim”, “Tarixiy obidalar”, “Kelajak rejalarim”, “O‘zbek tilini o‘rganish oson bo‘ldimi?” kabi mavzular bo‘yicha savollar tayyorlash. Suhbat. Sinov.





## O'ZBEK TILINI INTENSIV O'RGATISHDA TIZIMLI YONDASHUV

Bugungi kunda o'zbek tilining leksik, grammatik, uslubiy imkoniyatlarini lingvistik tadqiq etish bilan bir qatorda, tilshunoslarimiz oldida ona tilimizni o'rgatishning samarali uslublari bo'yicha izlanishlarni kuchaytirish vazifasi zaruriyatga aylanib bormoqda. Davlat tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish, mamlakatimizda o'zbek tilini har jabhada keng qo'llash, O'zbekiston fuqarolarining davlat tilini bilishi, bu tilda erkin so'zlasha olishi, o'z faoliyatida qo'llay olishiga hanuzgacha to'liq erisha olmayotganimiz biz, mutaxassislardan alohida mushohadani talab qiladi. Mazkur muammo o'zbek tilini o'qitishga ajratilayotgan o'quv soatlarining yetarligi emasligidan tortib, adabiyotlarning tur va miqdor jihatidan kamligi, shuningdek, o'zbek tilini o'qitish texnologiyasi, zamonaviy yondashuvlarning cheklanganligi bilan bog'liqdir.

Biror tilni talab darajasida, keng miqyosda o'rgatish, unga qiziqtirish uchun, avvalo, tegishli imkoniyatlarni yaratish talab etiladi. Shuningdek, bu masalada zamon talablariga mos ta'lim texnologiyalarini yaratish, ayniqsa, o'rganuvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda unga o'quv dasturlarni tanlash imkoniyatini berish, turli yondashuv va metodikani qamrab olgan xilma-xil o'quv adabiyotlari va dasturiy ta'minotlarni yaratish, raqobatdan qo'rqmaslik, qolaversa, o'rganuvchi uchun mustaqil ta'lim olishi uchun keng tanlov imkoniyati va materiallar bazasini yaratish zarur. O'zbek tilini o'rgatishning qisqa va uzoq muddatga mo'ljallangan yoki turli bilim darajalariga moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish, bular bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotni boyitish, sodda va murakkab, bosqichma-bosqich o'rgatishga moslashtirilgan multimediyali kompyuter dasturlarini, o'quv komplekslarini yaratish zarur.

Bu borada qilingan va qilinayotgan ishlarning, tilshunoslarimiz tomonidan yaratilgan dasturlar hamda o'quv adabiyotlarining hozirgi kunda o'z o'rnida ishlatilayotganligini e'tirof etgan holda, ularning miqdoran va turlari jihatidan yetarli emasligini ta'kidlash

joiz. O'zbek tilini o'qitishdan kutiladigan natijaning talab darajasida bo'lmasligida ta'minot bilan bog'liq bir jihat bo'lsa, keyingi jihatlar o'qitish texnologiyasini to'g'ri loyihalashtirmaslik, ya'ni maqsaddan natijagacha bo'lgan jarayonda qo'llaniladigan usul va vositalarning xilma-xil emasligi, talab va ehtiyojning ko'p hollarda hisobga olinmasligi, o'rganuvchilarga individual yondashishga e'tibor bermaslik, bir xil qolipdagi deduktiv uslubdardan foydalanish, o'rgatuvchida pedagogik mahoratning turli darajada bo'lishi kabilar bilan ham bog'liq. Ayniqsa, tajribalarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'zbek tili o'rganuvchilar grammatik qoidalarga bo'ysundirilgan dasturlar asosida yetarli natijaga erisha olmaydilar. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, o'rganuvchi qancha tez muloqotga kirishsa, u tilni shuncha oson o'rganadi, erishuvlar esa unga tilni mukammal o'rganishiga turtki bo'ladi.

Bu fikrlarni nafaqat o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan rusiyzabon talabalar, balki tilimizni o'rganish istagida mamlakatimizga kelayotgan xorijlik fuqarolar bo'yicha ham aytish mumkin.

Hozirgi kunda boshqa tillar, xususan, rivojlangan va keng tarqalgan g'arb tillarini o'rganishda yuqorida aytilgan imkoniyatlarning mavjudligi, til o'qitishning eng samarali usullaridan keng foydalanayotganligi va til o'qitish texnologiyalarining tizimli yondashuvi ishlab chiqilgani sababli bu tillarni o'rganish talaba uchun qulaylik tug'dirmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, o'zbek tilini o'qitishda ham ma'lum tizimli yondashuvga asoslangan holda, til o'qitishning konsepsiyasini yaratish zarurati tug'ildi.

Yuqorida berilgan o'zbek tilini intensiv o'rgatish konsepsiyasi boyicha masalaga tizimli yondashuv talab etiladi:

1. Til o'rganuvchining dasturda belgilangan mavzular o'tilganidan so'ng o'z fikrini bayon eta olishiga erishish. Har bir mavzu bo'yicha muloqotga kirisha olishini o'rgatish.

2. Intensiv o'qitish dasturini ko'p tarmoqli holatda tuzib chiqish, bunda soddadan murakkabga qarab ish yuritish prinsipiga amal qilish.

3. Mazmuniy (nutqiy) mavzularni grammatik mavzular bilan mutanosiblikda taqdim etish.
  4. Lugʻat boyligini oshirish, faqat soʻzlarni yodlash emas, balki sodda grammatik qoliplar asosida til va nutq birliklaridan samarali foydalana olishga oʻrgatish metodikasini ishlab chiqish.
  5. Birinchi bosqichda til oʻrganuvchilarni intensiv kurs asosida oʻqitib, keyingi, yaʼni davom ettiruvchilar uchun aynan shu mavzular doirasida til materialini kengaytirish va grammatik qoliplarning murakkab turlaridan foydalanishga oʻrgatish.
  6. Toʻliq kurs yakunida oʻqish, eshitish, gapirish, mushohada qilish ketma-ketligi boʻyicha muayyan natijalarga erishish.
  7. Oʻrganuvchiga oʻz-oʻzini baholash va oʻzaro baholashga imkoniyat berish va uni ragʻbatlantirib borish.
  8. Kurs davomida mustaqil taʼlim olishga ragʻbat hosil qilish, mustaqil taʼlim natijalarini muntazam nazorat qilib borish.
  9. Oʻrganuvchiga belgilangan mavzuda taqdimot qilish metodikasini singdirish.
  10. Oʻzbek tilini bilish darajasini baholovchi dasturiy taʼminot asosida oʻrganuvchining bilim darajasini belgilash.
- Oʻzbek tilini oʻrgatishda bu holatlarni amalga oshirish albatta oʻrganuvchining bilim darajasi, saviyasi, til oʻrganishdan maqsadi, yoshi, kasb-kori va shu kabi boshqa detallar bilan mutanosib holda, individual yondashish asosida olib borishni talab etiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish asosida barcha taʼlim elementlaridan samarali foydalangan holda talabalarga, xorijliklarga oʻzbek tilida oʻz fikrini bayon etishga oʻrgatishga erishish mumkin boʻladi.
-

## XORIJLIKLARGA TIL O'RGATISHDA MATN MATERIALINI TANLASH

Bugungi kunda biror bir davlatning taraqqiyot yo'li, milliy merosi, madaniyati, san'ati, mahalliy xalq hayoti va milliy an'analari, shuningdek, mamlakatda yuz berayotgan tub o'zgarishlar, yutuqlar, ilm-fandagi va boshqa sohalardagi yangiliklar bilan yaqindan tanishish shu xalqning milliy tilini o'rganishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Xususan, xorijiy tilni o'rganish odamlar o'rtasida dunyoni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, mutaxassislik bo'yicha chet el tajribalari bilan tanishish, umuman, jamiyatdagi barcha munosabatlarda aloqa vositasi sifatida tilni bilish davr talabiga aylandi. Shu maqsadda tilni chet tili sifatida o'rgatish metodikasi takomillashib, tilni eng oson yo'llar bilan o'rganish usullari ishlab chiqilmoqda. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rgatishda o'quv adabiyotlari va zamonaviy dasturlar mukammal va rang-barangdir. Ushbu darsliklarda til o'rgatishning o'nlab usullari turli izchilliqda tavsiya etilgan bo'lib, ba'zilari mukammal dasturlar kompleksidan, ya'ni grammatik ma'lumot, matn, leksik material, mashqlar, metodik qo'llanmadan iborat bo'lsa, ba'zilari esa til o'rganishning noan'anaviy o'ziga xos usullari asosida yaratilgan. Asosiy maqsad – tilni qisqa muddatda egallash va oson usullar yordamida chet tilini o'rgatishdan iborat. Xorijiy tillarni o'qitishda bosqichma-bosqich tizimli yondashuv usullari ham mavjud bo'lib, ular yordamida tilni bir necha yil davomida izchil mukammal o'rganish mumkin. Bugungi kunda yurtimizda bir qancha xorijiy sharq va g'arb tillari o'rgatib kelinmoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishga katta e'tibor qaratilgan. Ingliz tilini o'rgatish bo'yicha darsliklarni shartli ravishda subyektlar (ya'ni o'rganuvchi va o'qituvchi)ning ehtiyojiga qarab quyidagicha tasnifladik:

- internet kutubxonalaridan eng ko'p yuklab olinayotgan kitoblar yoki mustaqil o'rganuvchilar uchun manbalar;
- o'quv markazlaridagi ta'lim uchun darsliklar;

-hozirgi kunda respublikamiz ta'lim tizimida qo'llanilayotgan darsliklar;

1-guruh vakillari, asosan, ta'lim davrida ingliz tilini mukammal darajada egallay olmagan, jumladan, og'zaki nutqni shakllantira olmagan talabalar bo'lib, ular davom ettiruvchilar uchun mo'ljallangan dasturlarni afzal ko'rishadi. Ushbu qo'llanmalar odatda so'zlashuv uslubi yoki og'zaki nutqni o'rgatishga mo'ljallangandir. Masalan: N.F. Zamyatkinning «Вас не возможно научить иностранному языку» amaliy qo'llanmasi matnlar ustida ishlash orqali nutqni shakllantirishga asoslangan. M.Goldenkovning «Осторожно! Hot Dog! Современный Активный English» qo'llanmasi amerika-ingliz tiliga bag'ishlangan bo'lib, unda, asosan, og'zaki til va slenglar o'rgatiladi, shuningdek, amerika mentaliteti va uning tilga ta'siri haqida qiziqarli ma'lumotlar olsa bo'ladi.

Tilni boshlang'ich bosqichda o'rganuvchilar, shuningdek, mamlakatimiz o'quv markazlarida (2-guruh vakillari) ta'lim olayotganlar til o'rganishda, asosan, ingliz tili grammatikasi va grammatik materialni mustahkamlash uchun mashqlardan tuzilgan Kembrij universiteting Grammar in Use (Raymond Murphy) qo'llanmasidan hamda Oksford universiteti tomonidan nashr qilingan "NEW Headway" (Lis and John Soars hammuallifligi ostida) darsligidan foydalanadilar. Mazkur o'quv qo'llanmalardan, ba'zi oliy o'quv yurtlarimizda ham keng foydalanib kelinmoqda. Aksariyat o'quv yurtlarida shu kungacha N.A.Bonk, N.A.Lukyaynova, L.G.Pamuxinaning "Учебник английского языка" darsligi asosida mashg'ulotlar olib boriladi. Ushbu darsliklar til o'qitishning an'anaviy usulida yaratilgan bo'lib, unda, asosan, adabiybadiiy tilni o'rgatishga e'tibor qaratilgan, shu bilan birga bu kitoblardagi ba'zi leksik va grammatik materiallar hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketgan<sup>1</sup>.

Yuqoridagi darsliklarning barchasida matn asosiy obyekt qilib olingan bo'lib, birlamchi yoki ikkilamchi vazifani bajaradi. Faqat og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan darsliklarda dialog

<sup>1</sup> M.Goldenkov. Осторожно! HotDOG! Современный Активный English. 2-nashr. -M.: CheRo, 1999. -B.272.

ko'rinishidagi matnlardan foydalaniladi va odatda o'rgatilyotgan iborani tushuntirish bilangina chegaralanadi. Asosan, o'qishga tayyorlash uchun tayanch darslik vazifasini o'taydigan darsliklarda grammatik material beriladi. Matnlar ba'zi darsliklarda oldin berilib, ularning asosida yangi material tushuntirilsa, ba'zilarida esa oxirida mavzuni mustahkamlash vazifasida keladi. Ta'lim tizimi va o'quv markazlarida o'rgatilyotgan darsliklarda esa, asosan, matnlar soddadan murakkabga qarab berilgan. Demak, bunday qo'llanmalarda til o'rganishning dastlabki bosqichida zarur bo'lgan nutqiy mavzular asosida matn tanlanadi. Masalan, "Tanishuv", "Oilam", "Mening kasbim" kabi.

N.A.Bonk, N.A.Lukyanova, L.G.Pamuxinaning "Учебник английского языка" darsligida ham oddiy dialoglardan murakkab matnlarga o'tilib, 2-qismida esa badiiy asarlardan parchalar beriladi, bu esa o'z o'rnida adabiy tilni badiiy til orqali o'rgatishga yordam beradi.

Bugungi kunda ingliz, nemis, fransuz tillarini o'rgatish bo'yicha darsliklarda nutqiy mavzular turist yoki xorijiy talabalarning kundalik ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlangan bo'lib, masalan, "Hammaga salom", "Xotirjam bo'l", "Kattaroq va yaxshiroq!", "Hayot- sarguzasht" kabi matnlar berilgan. Lekin oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan darsliklarda bunday mavzularni berish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Darslikning kimga mo'ljallanganligiga qarab o'rganuvchining ijtimoiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, shu bilan birga, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini aks ettiruvchi matn tanlash til o'rganish orqali jamiyatni idrok etishga yordam beradi.

Ma'lum soha mutaxassisi o'z mutaxassisligi bo'yicha chet tilini o'rganishi mumkin. Bu holda, shu sohaga yo'naltirilgan mavzular matn sifatida berilishi zarur. Bugungi kunda individual ta'limga katta ahamiyat berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'rganuvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda matn tanlanishi va leksik material ham sohaga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda ommalashayotgan elektron darsliklar mana shu muammoning yechimi sifatida taqdim qilinmoqda. Chunki

ular da matnlar bazasi mavjud bo'lib, elektron darsliklarda til o'rganuvchi o'zining sohasiga mos matnni tanlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun ma'lum bo'linmadan mutaxassisligi tanlansa, dastur shu mutaxassislikka oid leksik materialni taqdim etadi. O'qituvchilar ma'lumotlar bazasining yig'ilib borishi ham til o'rganuvchilarga o'z sohasiga yaqin bo'lgan mutaxassis-o'qituvchini topish imkoniyatini beradi.

Demak, xorijiy til o'qitish tajribasi til o'rgatishda matnning ahamiyati, ayniqsa, to'g'ri mavzu tanlanish muhimligini amalda ko'rsatmoqda.

Shuningdek, mustaqil o'rganuvchilar uchun faqat matn orqali tilni o'rgatish metodikasi ham ommalashmoqda (dialog yoki monologli murakkab matnlar asosida) Bu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi: yodlash-o'qish→badiiy asar o'qish (katta hajmdagi) → ko'rsatuv va eshittirishlar→ til egalari bilan suhbat.

Demak, xorijiy til o'qitish tajribasi asosida o'zbek tilini chet ellik talabalarga o'rgatishda matnni tanlash va umuman matn yordamida til o'rgatish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.



## O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA GRAMMATIK QURILMALARNI NOAN'ANAVIY USULDA TUSHUNTIRISH YO'LLARI

Hozirgi kunda xorijiy talabalar tomonidan o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. O'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish dasturlari turli metodlarga asoslanadi. Lekin o'zbek tilini bosqichma-bosqich o'rgatishning kompleks tizimi mavjud emas, bu tizimni ishlab chiqish va joriy etish uchun esa mukammal elektron darslik-majmua yaratish dolzarb masala. Bu maqsadni amalga oshirishdagi birinchi qadam tilning grammatika kursini an'anaviy bo'limlar ketma-ketligida emas, balki grammatik bilimlarni semantik-sintaktik mavzularga guruhlagan holda sodda va murakkab so'z birikmalari hamda gap qoliplari komplekslari asosida yaratishdir. Hozirgi kungacha g'arb tillarini o'qitishning turli metodlari asosida tanlangan maishiy mavzularda suhbat qilish, so'zlashgichlar orqali yoki faqatgina yodlash orqali til o'qitish kabi usullardan foydalangan holda o'zbek tili ta'limi tashkil etilgan. Albatta, bu metodlar o'z natijasini berdi, lekin zamonaviy o'qitish texnologiyalari va yangi yondashuvlar tilni o'rgatishning oson va intensiv yo'llarini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi - talaba munosabatlari turli uslublar vositasida amalga oshiriladi. Masalan, talaba biror chet tilini o'rganayotganda tezrok o'zida qandaydir natija ko'rishni va shu tilda eng oson nutqiy vaziyatlarda bo'lsa ham, o'z fikrini ifodalashni istaydi. Shu maqsadda o'qituvchi eng samarali usullardan foydalangan holda o'quv jarayonini to'g'ri tashkillashtirishi zarur. Bu esa o'z navbatida, o'quv dasturining mukammalligi, til o'qitish metodikasining turli usullaridan foydalanish, vaziyatli mashg'ulotlar o'tkazish kabi bir qancha omillarga bog'liq.

Mana shunday yo'llardan foydalangan holda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning yangi intensiv usullaridan biri grammatik shakllarni va ular o'rtasidagi uslubiy, mazmuniy farqni turli vaziyatlar orqali tushuntirishdan iborat. Ma'lumki, tilni



o'qitishdan asosiy maqsad talabani shu tilda o'z fikrini ifodalashga, to'g'ri gap tuzish ko'nikmalarini hosil qilishga o'rgatishdir. Mavzular funksional-kommunikativ majmualar shaklida berilganda, gap qurilmalari turli mezonlar asosida, masalan, soddadan murakkabga qarab yoki nutq uslublarida qo'llanishiga qarab ham guruhlanishi maqsadga muvofiqdir. Ularning qo'llanishidagi uslubiy jihatlari esa berilgan misollardagi vaziyatlarda tushuntirib boriladi. Bu usul orqali talaba o'z ona tili grammatik qoidalarini chuqur bilmasa ham, keltirilgan misollardagi vaziyatlar yordamida gap qurilmalarini to'g'ri qo'llashga o'rgana oladilar.

O'zbek tilida "Shart ma'nosining ifodalanishi" mavzusini tushuntirish misolida ushbu usulni tahlil qilib chiqamiz. Ma'lumki, asosiy maqsad filologik bilimlarni berish emas, balki talabaning nutqini shakllantirish, bu esa o'qituvchilardan intensiv ravishda tilning barcha lisoniy xususiyat va uslublarini ma'lum nutqiy vaziyatlarda kompleks o'rgatishdan iborat bo'lib, talaba til o'rganishning dastlabki bosqichlaridayoq o'z natijalarini ko'ra olishi kerak. Gap qurilmalarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda ularni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda odatda boshqa til (o'rganuvchining ona tili yoki xalqaro tillarning birida) vositasida ularni qiyoslab tushuntiriladi. Lekin bir til imkoniyatidan kelib chiqqan holda vaziyatli misollar orqali tushuntirish ham samarali hisoblanadi. Masalan, shart maylining turli fe'l shakllari bilan qo'llanishida qo'shimchalarning ishlatilishi va ularning turli ma'no nozikliklarini farqlab olish chet ellik talabalarga qiyinchilik tug'diradi.

**"Agar... + fe'l + -moqchi bo'lsa"** qurilmasini tushuntirish uchun ushbu misolni tanladik: Agar bu kitobni o'qimoqchi bo'lsangiz, sizga berishim mumkin. Bu gapdagi o'qimoqchi bo'lsangiz shaklini o'xshash shakllar bilan qiyoslaymiz:

Nodir, **agar** ertaga **kelsangiz**, menga qo'ng'iroq qiling.

Nodir, **agar** ertaga **kelmoqchi bo'lsangiz**, menga qo'ng'iroq qiling.

Nodir, **agar** ertaga **keladigan bo'lsangiz**, menga qo'ng'iroq qiling.

1-gapda oddiy shart mazmuni ifodalangan bo‘lib, Nodir kelganidan keyin ham qo‘ng‘iroq qilishi mumkinligi aytilgan. 2-gapda esa Nodirning kelish istagi bo‘lsa telefon qiladi, 3-gapda Nodir kelishni rejalashtirgan bo‘lsa qo‘ng‘iroq qiladi. Demak, bu misollar yordamida talaba ularning qo‘llanishidagi ma‘no farqlarini bilib oladi.

Shart ma‘nosini o‘tgan zamon shaklini ifodalovchi gap qurilmalarini tushuntirayotganda ularning ma‘naviy farqlarini ham izohlab o‘tish maqsadga muvofiq.

**Agar Nodir tushunmagan bo‘lsa**, unga yordam berishim mumkin.

**Agar Nodir tushunmaganida edi**, unga yordam berardim.

1-gapda Nodirning tushungan yoki tushunmaganligi aniq emas. 2-gapda esa Nodirni tushungan deb o‘ylaydi va shuning uchun ham yordam kerak emas deb hisoblaydi.

Bunday usullar orqali talaba muntazam ravishda ikki tilni solishtirgan holda tushunishga va eslab qolishga majbur bo‘lmaydi, chalg‘imaydi, balki o‘zbek tilining tabiatini his qilishga o‘rganadi. Shu bilan birga dars davomida faqat bir tilni eshitadi, o‘z navbatida o‘qituvchi ham boshqa bir til bilan qiyoslashga vaqt ketkazmay, ko‘proq misollar va vaziyatli holatlar yordamida tushuntirishga muvaffaq bo‘ladi. Bu esa o‘rganilayotgan gap qurilmalarini mustahkamlashga imkon beradi va o‘rganilayotgan gap qurilmalarini shu zahotiy oq nutqda qo‘llab o‘zbek tilida fikrlash ko‘nikmasini hosil qiladi. O‘z o‘rnida lug‘aviy boylikni oshirish va talabaning xotirasidagi leksik birliklarni ishlatish imkoniyati kengayadi, deb o‘ylaymiz.



## XORIJIY TALABALARGA O'ZBEK TILIDAGI FE'L SHAKLLARINI O'RGATISHNING MUHIM JIHALTLARI

Fe'l o'zbek tilining grammatik qurilishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishi bilan bir qatorda, fikr ifodalashdagi eng muhim uzvlardan biri hisoblanadi. O'zbek tilida fe'l eng ko'p grammatik shakllarga ega bo'lgan turkumdir. Shu tufayli ham til o'rganuvchilar tomonidan bu turkumning ham morfologik xususiyatlari, ham sintaktik vazifalarini chuqur o'rganish talab etiladi. O'zbek tili fe'l shakllarining leksik-semantik va funksional-grammatik jihatdan murakkabligi bois bu jarayon xorijlik talabalar (umuman, til o'rganuvchilar) uchun ancha qiyin kechadi. Shu sababli bu murakkabliklar nimadan iborat va ularni oson hal qilish yo'llari qanday bo'lishi mumkinligi haqidagi savollarga javob berishni maqsad qilib oldik.

Avvalo, fe'l turkumiga oid so'zlarni o'rgatish jarayonida so'zning lug'aviy ma'nosi va ko'chma ma'nolariga oid masala ko'ndalang turadi. Bunda asl (denotativ) ma'nosi eng oson tarzda tarjima lug'atlari orqali anglanadi. Shuningdek, dars jarayonida misollar vositasida tushuntiriladi. So'zning ko'chma ma'nolarini o'rganishda esa kengroq so'z boyligi talab qilinadi. Bundan tashqari fe'l turkumiga oid so'zlarga teng bo'lgan frazeologik birliklarning o'rganilishi ham e'tiborni talab qiladi. Bu jarayonda **tavsiflash va qiyoslash metodidan** foydalaniladi. Talaba tuzadigan lug'atda 4 ta ustun bo'lish kerak. U o'zi bilgan va o'rgangan fe'llarni birinchi ustunga yozadi, ikkinchisiga so'zlarning tarjimasini, uchinchi ustunga ko'chma ma'nosini va to'rtinchisiga iboralarni (agar shu so'zga teng frazeologik birlik tilda bo'lsa) yozadi. Bu so'z boyligi oshirish va til birliklarini o'rinli qo'llash uchun juda muhim. Fe'lning bu jihatini o'rganish ko'pchilik tillarda o'xshash. Ammo fe'lning grammatik ma'nosini ifodalovchi zamon, shaxs-son, nisbat, mayl kategoriyalarini o'rgatish jarayonida aynan o'zbek tiligagina xos jihatlar namoyon bo'ladi. Bular-dan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Zamon ko'rsatkichlarini yodlab olish bilan ko'p narsaga erishib bo'lmaydi. Chunki shunday vaziyatlar bo'ladiki, kontekstda grammatik shakl boshqa, u ifodalagan zamon ma'nosi esa boshqa bo'ladi. Bunda zamon ma'nolarining ko'chishi masalasi alohida diqqatni talab qiladi. (-*yapman* hozirgi zamon davom fe'lining ko'rsatkichi, *Bugun kechki reysda Seulga uchib ketyapman* gapida esa bu zamon ko'rsatkichi kelasi zamon ma'nosida kelgan). -*gan* ko'rsatkichi ham uzoq o'tgan zamonnini, ham fe'lining funksional shakli bo'lgan sifatdoshnini ifodalaydi. Yoki -*r/-ar* davomlilikni va kelasi zamonnini ifodalashi bilan birga, sifatdosh shakli hisoblanadi. Bu kabilarni farqlash uchun ham matn bilan ishlash kerak bo'ladi. Talabaga berilgan matnlardan avval shu shakldagi so'zlarni ajratib olish, keyin esa ma'nolarni **farqlash** va **sharhlash** usuli orqali ijobiy natijaga erishish mumkin bo'ladi.

*Edi, ekan* to'liqsiz fe'llarining qo'llanishiga oid mavzularni o'qitishda ham ko'p ma'no nozikliklari mavjudlini ko'ramiz. Masalan, qiyoslash uchun quyidagi misollarga e'tibor bering: *Siz bu kitobni so'rasangiz edi, o'qituvchi sizga uni berardi. U kelayotgan bo'lsa edi. Men bu filmni anchadan beri ko'rmogchi edim. 2 yil oldin men undan bu haqida so'ragan edim. Undan bu haqida so'ramas ekansiz. O'qituvchi ertaga bu mavzuni hammadan so'rar ekan. U hozir axborot ko'rsatuvini ko'rayotgan ekan. Kecha meni so'ragan ekansiz*, va hokazo. Bunda zamon, kontekst, adresant va adresatning vaziyatini izohlash talab etiladi.

Shaxs-son kategoriyasini xorijlik talabalar boshqa shakllarga nisbatan osonroq o'zlashtiradilar, chunki unda nisbatan turg'unlik mavjud. Ammo ko'plik shaklining grammatik ma'nosi va uslubiy ma'nosini farqlashga e'tibor berish kerak bo'ladi. Masalan, hurmat ma'nosini ifodalash uchun birlik shakli o'rnida ko'plikning kelishi, kesatish ma'nosida shaxs-sonning ko'chishi; jonsiz narsalarga nisbatan 3-shaxs ko'plik shaklining qo'llanmasligi, ya'ni gapning egasi ko'plikda bo'lgani holda fe'l-kesimning birlikda bo'lishi kabilar.

Buyruq-istak maylining ko'rsatkichlarini o'rgatishda ham o'ziga xos murakkabliklar mavjud. Chunki bu kategoriya ko'rsatkichlari bir xil shaklda bo'lgan holda turlicha ma'nolarni (buyurish, istak, maslahat, do'q qilish va h.) ifodalashini alohida tushuntirish talab qiladi.

O'zbek tilida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari eng murakkab shakllardan ekanligi ma'lum. Avvalo, sof ko'makchi fe'llarning mavjud emasligi, mustaqil fe'llarning bunday qo'shilmalar tarkibida yordamchi so'z sifatida xizmat qilishi tushunish va farqlashni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, ko'makchi fe'llarning ustma-ust bir nechtasi qo'llanishi mumkinligi, ularning har biri o'ziga xos ma'no tashishini o'zlashtirish ham murakkab kechadi. Shuningdek, bu shakllarni *fe'l+fe'l* tipidagi qo'shma fe'llardan farqlash ham muhim hisoblanadi. Tilning bu kabi murakkab jihatlarini ketma-ket o'rgatish, albatta, xorijlik talabalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni susaytirishi, ijobiy natijaga erisha olmaslik hissidan iborat qo'rquvni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday psixologik holatda o'qituvchi kutgan natijaga erisha olmasligi aniq. Shuning uchun dars jarayonini to'g'ri texnologiya asosida tashkil etish nihoyatda muhimdir. Bunda til o'qitishning **an'anaviy usullari** bilan bir qatorda, **noan'anaviy usullardan, interaktiv metodlardan va informatsion texnologiyalardan** foydalanish mumkin. Talabaga individual yondashuv esa eng asosiy mezondir. O'zbek tili grammatikasini, xususan, fe'l turkumidagi so'zlarni o'rgatishda **deduktiv metodga** asoslangan qoidani mashq bilan mustahkamlash (qoida — misol) yoki **induktiv metod** bo'yicha misollar va matn vositasida xulosa chiqarishga o'rgatish (misol — qoida) yo'lidan borish mumkin. Interaktiv usullar bilan ishlashda ham mavzuning murakkabligiga yoki osonligiga, guruhning katta-kichikligi va saviyasiga qarab metodlarni tanlash kerak. Til o'rganish, ayniqsa, o'zbek tilidagi fe'llarni o'rgatish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan kabi murakkab jihatlarini oson o'zlashtirish uchun og'zaki nutqda talabaga tushunarli hayotiy misollar va matnlardan foydalanish talab etiladi. Xorijlik talabalarga dars o'tish jarayonida milliyligimizni namo-

yon etuvchi misollar va vositalardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Shuningdek, tasavvur qilishga qaratilgan vaziyatli misollarni topish, tanlangan vositalar esa talaba uchun qiziqarli va qulay bo'lishi kerak. Fe'lining har bir kategoriyasiga tegishli qoidalarga asoslangan holda tayyorlangan **slaydlar taqdimoti usuli** ham shakllarning yodda qolishiga yordam beradi.

Tajribadan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, dars jarayonida xorijlik talabalarga an'anaviy usullardan va informasion texnologiyalardan foydalanish kutilgan natijani beradi. **Audio va videomateriallar, suhbat usullari** esa keyingi bosqichlarda qo'l keladi. O'zlashtirilgan materiallarni mustahkamlash va yodda saqlash, nutq jarayoniga tatbiq etishda bu usullarning katta ahamiyati bor.

Xulosa shuki, fikrning mazmunini ifodalovchi fe'l shakllarini o'rgatishda ularning ma'no qirralariga alohida e'tibor berish talab etiladiki, bu yuqorida aytilgan metodlarni mos tarzda tanlashni taqozo etadi.

---

## TIL O'RGATISHDA "SHAKLDAN MAZMUNGA" USULI

Ta'lim jarayonida o'qituvchi – o'quvchi munosabatlari turli uslublar vositasida amalga oshiriladi. Masalan, o'quvchi biror chet tilini o'rganayotganda, tezroq o'zida qandaydir natija ko'rishni va shu tilda eng oson nutqiy vaziyatlarda bo'lsa ham, o'z fikrini ifodalashni istaydi. Demak, bu o'rinda chet tilini o'qitishda o'quvchiga individual yondashgan holda u qabul qilishi osonroq bo'lgan uslubni tanlash maqsadga muvofiqdir... «Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan o'zaro aloqani o'rnatish va talabning xatti-harakati orqali o'qitishdir»<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> .B.Farberman. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T., 2000, 31-b.

Bor metodik materialni qo'llagan holda o'qituvchi o'quv jarayonini faollashtirishi shu bilan til o'rgatishning eng mukammal darajasiga erishishi mumkin. Mana shunday usullardan foydalangan holda o'zbek tilini o'qitishning yangi intensiv usullaridan biri grammatik shakllarni ular ifodalagan ma'nolariga ko'ra guruhlab, gap qurilmalari shaklida berishdan iborat. Ma'lumki, tilni o'qitishdan asosiy maqsad talabani shu tilda o'z fikrini ifodalashga, to'g'ri gap tuzish ko'nikmalarini hosil qilishga o'rgatishdir. Tilni intensiv ravishda o'rgatishga mo'ljallangan darsliklarda gap qurilmalarini funksional-kommunikativ majmualar shaklida berilishi birinchi tomondan, qisqa muddat ichida o'zbek tilini o'rganishga, ikkinchi tomondan esa talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga imkon beradi. Masalan, istak-xohishni ifodalash yo'llari, shart ma'nosini ifodalash yo'llari, payt (vaqt) ma'nosini ifodalash yo'llari, sabab ma'nosini ifodalash va hokazo. Biz bu usulning samaradorligi haqida oldingi tadqiqotlarimizda gapirgan edik. O'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bizga ma'lumki, pedagogik texnologiya - bu ta'limdagi yangi yo'nalish, o'quv jarayoniga texnologik yondashuv, ya'ni o'qitishda yuqori samaraga erishish yo'li. Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi shuki, rejalashtirilgan o'quv jarayoni ta'lim maqsadiga erishishning eng samarali usuli bo'lishi lozim. Ma'lumki, ko'p hollarda til o'rgatish individual yondashuvni taqozo etadi. Bunday vaziyatlarda talaba uchun oson bo'lgan usul tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zi hollarda (ayniqsa, chet elliklarga o'zbek tili o'rgatayotganda) biz yuqorida samarali deb hisoblagan usul - gap qurilmalarini ular ifodalagan ma'nolariga ko'ra guruhlab berish ham intensiv natija bermay qoladi. Masalan, shart maylining shakli

**(-sa)**ni ham shart ma'nosini ifodalashda, ham noaniqlik ma'nosini ifodalashda, ham to'siqsizlik ma'nosini ifodalashda uchratgan talaba uchun ba'zan ularni farqlash qiyinchilik tug'diradi. Bir xil grammatik shakllarning turli nutqiy mavzularda

turli ma'nolarni ifodalashini talabaga tushuntirishda "shakldan mazmunga" usulini qo'llash ham yaxshi samara beradi. Shu ma'noda shart mayli shaklining tildagi barcha vazifalarini qiyosiy o'rgatish ta'bir joiz bo'lsa, matematik (aniq) fikrlaydigan talabalar uchun juda qulay usuldir. Masalan, *-sa* (shart ma'nosini ifodalaydi), *-sa edi /-sa ekan* (istak-xohish ma'nosini ifodalaydi), *-sa kerak* (gumon ma'nosini ifodalaydi), *-sa ham* , *-sa-da* (to'siqsizlik ma'nosini ifodalaydi), *-sa bo'ladi* (imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalaydi), *-sa mayli* (iltimos-ruxsat ma'nosini ifodalaydi) shakllarini misollar yordamida qiyosiy o'rgatish orqali ular o'rtasidagi grammatik farqni aniq tushuntirish mumkin. Keyingi bosqichda ularning sinonimik variantlarini (masalan, shart ma'nosining *-sa /-ganda* shakli; imkoniyat mavjudligini ifodalashning *-sa bo'ladi / -ish mumkin* shakli kabi) berib, shu bilan birga, zamonlarda qo'llanish shakllari ham o'rgatiladi. Ma'lumki, yuqorida berilgan grammatik qurilmalarning zamon shakllari ham bir xil bo'lgani uchun talaba oson eslab qoladi (masalan, *kelgan bo'lsa // kelgan bo'lsa ham // kelgan bo'lsa kerak*). Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, til o'rganayotgan talabaga individual yondashganda, uning ixtisosligi, ya'ni aniq yoki ijtimoiy fanlarga yo'naltirilganligi, qabul qilish qobiliyati kabi omillar ham hisobga olinishi kerak. Biz yuqorida keltirgan usul aniq fanlar yo'nalishidagi til o'rganayotgan talabalarda yaxshi natija berdi.

Demak, yuqorida aytganimizdek, asosiy maqsadimiz o'quvchiga individual yondashgan holda u qabul qilishi osonroq bo'lgan uslubni tanlab, tilni eng qulay usul yordamida o'rganishi uchun imkoniyat yaratishdan iborat.





## O'ZBEK TILINI O'QITISHDA XORIJIY TILLARNI O'RGANISH TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH MASALASI

Ta'lim tizimini yangilash, ilmiy-uslubiy jihatdan zamonaviy usullar bilan ta'minlashda zamonaviy darslik va qo'llanmalarni yaratish zaruriyati tug'ildi. Shu bilan birga, darsga tizimli yondashuv ham muhim talablardan biridir. Til o'qitish bo'yicha yaratilayotgan zamonaviy o'quv-majmualar ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliigi, tinglash, yozish, o'qish, gapirish shakllarini qo'llash, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, matn ustida ishlash, grammatik mavzuni yoritish, amaliyot va nazorat, mustaqil ta'lim va boshqalar.

Ma'lumki, dars jarayonini yangicha usul va zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil qilish bilan ta'lim sifatini oshirishga erishishimiz mumkin. Zamonaviy til o'qitish metodikasi chet tillarini intensiv va eng oson usullarda o'rgatish imkonini beryapti.

O'zbek tilini o'qitish jarayonida darsda og'zaki va yozma nutqni shakllantirish, eshitish ko'nikmalarini hosil qilish, so'z boyligini oshirish maqsadida turli usul va texnologiyalardan foydalanamiz. Lekin bu usullar darsliklarimizda o'z aksini topmagan. Xususan, o'zbek tilini ikkinchi til yoki chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun mo'ljallangan darslik-qo'llanmalarining aksariyatida faqat grammatikaga doir material va o'qish uchun matn beriladi, xolos. Matnning grammatik material bilan bog'liqligi, berilgan topshiriqlar maqsadi, uzviylik, izchillik kabi talablarga aksariyat holda rioya etilmaydi. O'zbek tilini chet tili sifatida o'qitishda kompleks yondashuv tizimi yaratilsa, talaba dars jarayonida ham gapirish, ham tushunish, ham yozish, ham o'qish, ham tarjima qilish kabi amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi. Dars jarayonida fonetik-orfoepik me'yorlar, grammatik qurilmalarni uslubiy to'g'ri qo'llash, so'zlarni to'g'ri ishlatish, audiomaterialni tinglab tushunish, fikrni davom ettirish yoki nuqtai nazar

bildirish kabi bir qator ko'nikmalar kompleks ravishda shakllantiriladi. Bunda avvalo grammatik mavzular yirik nutqiy mavzular ostiga birlashtirilib, dars "matndan grammatik mavzuga" tamoyili asosida tizimga solinadi. Birinchidan, nutqiy mavzularni belgilashda uning jamiyat taraqqiyotidagi dolzarbligi va tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olish zarur. Masalan, chet tili darsliklarida "Kino yulduzlari", "Yaxshi kayfiyat", "Zamonaviy kiyinish va moda", "Yoz ta'tilidagi ish" kabi nutqiy mavzular ham kiritilgan bo'lib, bu mavzular o'sha jamiyat nuqtayi nazaridan chet ellik til o'rganuvchilar uchun dolzarb mavzular bo'lishi mumkin. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan talabalarga esa ijtimoiy ahamiyatga molik, jamiyatimiz tarixi, buguni va kelajagi bilan bog'liq mavzular berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Oila - jamiyat poydevori", "Vatan ostonadan boshlandi", "Tarixsiz kelajak yo'q", "Ta'lim va ta'lim tizimi", "Ilm sirlari", "Yoshlar va ularning hayot tarzi", "Ma'naviyat olami", "Milliy an'analar va madaniyat" kabi mavzular bo'yicha material ustida ishlash talabaga eng muhim va kengiste'moldagi leksik materialni o'rgatish bilan qatorda uning dunyoqarashini shakllantirishda, yangi ma'lumotlar berishda, talabaning og'zaki nutqini shakllantirishda, o'z nuqtayi nazarini bildirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, matn ustida ishlashga jiddiy e'tibor berish va rang-barang til o'qitish usullaridan foydalangan holda talabaning yozma va og'zaki nutqini shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqishdir. Bunday boy tajribaga ega ingliz tilini o'rgatish dasturlarida, asosan, matn ustida ishlash orqali talabada til ko'nikmalari hosil qilinadi. Eng samarali usullardan biri matn qismlarga bo'lib o'rganish va ularni sarlavhalash, asosiy fikrni topish, berilgan savolga javob qidirish, ikki o'xshash matn ustida ishlash, matnda uchragan yangi so'zlarni eslab qolishga yordam beradigan mashqlar tizimini shakllantirish bo'lib, bu butun bir tizimli yondashuv usuli (matnga tayyorgarlik, matn o'qish, matn mazmuni ustida ishlash, matn leksikasini tahlil qilish, matndan kelib chiqib yangi grammatik materialni tushuntirish va mashqlar

yordamida mustahkamlash, matn mavzusiga yaqin mavzuda matn tinglash, talabanning qanday tushunganligini tekshirishga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali talabanning og'zaki nutqi ustida ishlash va shu mavzu yuzasidan talabanning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan topshiriqlar yordamida og'zaki nutqni shakllantirish)ni o'z ichiga oladi. Mana shunday tizimli yondashuv talabanning nutqini shakllantirishning eng samarali usullaridan biri ekanligini tajriba ko'rsatdi. Demak, dars jarayonini quyidagicha rejalashtiramiz:

- 1) matnga tayyorgarlik (topshiriqlar yordamida)
- 2) matnni o'qish
- 3) matnni tushunganligini tekshirish (topshiriqlar yordamida)
- 4) matndagi yangi leksik materialni o'zlashtirish
- 5) matnda uchragan yangi grammatik materialni tushuntirish
- 6) grammatik materialni mustahkamlash (mashqlar bajarish)
- 7) matn tinglash (yuqoridagi matn mavzusiga yaqin matn tinglanadi)
- 8) tinglangan matnni tushunganligini tekshirish (topshiriqlar yordamida)
- 9) matn mavzusi yuzasidan suhbat va fikr bildirish
- 10) darsning nutqiy mavzusi bo'yicha o'z nuqtayi nazarini yozma bayon qilish
- 11) mustaqil ta'lim uchun material berish va ijodiy ish

Masalan, "O'zbekistonda ta'lim tizimi" mavzusidagi dars mashg'ulotida matnni o'qishdan oldin matn mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarga bir necha savol beriladi. Talaba matnni o'qish davomida ushbu savollarga javob topadi va o'z javoblari bilan qiyoslaydi. Matn bo'yicha topshiriqlarni tuzishda "osondan murakkabga" usulini qo'llagan holda oldin yangi so'zlar ustida ishlash kerak. Bunda rang-barang metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, matnda uchragan yangi so'zlarning ta'rifi

beriladi. Talaba berilgan ta'rifga mos so'zni matn mazmunidan kelib chiqqan holda topishi kerak. Aytaylik, matnda shunday jumla keltirilgan: "... bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan katta **islohotlar** ta'limning sifatini yanada oshirishga, talabalarning bilim olishlarini yanada kuchaytirishga yordam bermoqda". Talabaga "islohot" so'zini tushuntirish maqsadida quyidagi topshiriq beriladi:

*Keltirilgan ta'rif matndagi qaysi so'z haqidaligini toping:*

*Biror sohada o'tkaziladigan katta (tub) o'zgarishlar-.....*

Yoki berilgan gapda ajratilgan so'zning sinonimini matndan topish so'raladi. Masalan, "*Bu tizim eskirgani va talabga javob bermayotgani uchun **o'zgartirishlar** qildik*".

Demak, leksik material o'zlashtirilgach, an'anaviy savol-javob usuli orqali matnni tushunganlik darajasini baholab olish mumkin.

Grammatik mavzu tushuntirilganda, qiyosiy tahlil, grammatik qurilmalar orqali tushuntirish samaralidir. Grammatik mavzuni mustahkamlashda matnda uchragan va darsning nutqiy mavzusiga yaqin 6-7 fe'l ustida bir necha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "o'qimoq, o'rganmoq, tanlamoq, tekshirmoq, ishtirok etmoq, tahlil qilmoq" kabi matnda uchragan fe'llarni to'g'ri grammatik shaklda qo'llash, ularning boshqa shakllari ishtirokida gap tuzish, ularning berilgan gaplardagi sinonimlarini topish, matndagi xato variantlarni aniqlash kabi. Bu o'rinda so'zlarni to'g'ri qo'llash bo'yicha mashqlar bajarish katta yordam beradi. Masalan, "*o'qimoq*" va "*ta'lim olmoq*" so'zlarining ma'no farqlarini tushuntirish maqsadida ularning izohi beriladi. Shundan so'ng talaba berilgan gaplarda ularni to'g'ri qo'llashga harakat qiladi. Masalan, *Akam muhandislikka (o'qimoq, ta'lim olmoq)*. Eshitish uchun ham shu nutqiy mavzuga doir matn tanlanadi (jumladan, "Ta'limda tarbiya masalasi", "Xorijda ta'lim tizimi", "Ilm olish madaniyati" va b.). Topshiriqlar bir maqsadga, ya'ni matnni tushunganlik darajasini tekshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, berilgan gaplarni

matn mazmunidan kelib chiqqan holda to'ldirish, savollarga javob berish, noto'g'ri fikrlarni aniqlash kabi. Bunda bir jihatga ahamiyat berish lozim: talaba matnni tinglash uchun yetarli leksik material (baza)ga egami va talaba uchun yangi bo'lgan grammatik material matnda uchramaydimi? Iloji boricha tinglash uchun tayyorlangan material o'tilgan mavzular asosida tanlanishi kerak. Agar matnda bir nechta yangi so'z uchrasa, oldindan talabaga bu so'zlarni berish zarur. Bu usul orqali biz o'tilgan mavzularni mustahkamlaymiz. Shundan keyin so'nggi bosqichga, ya'ni yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish bosqichiga o'tiladi. Bunda yuqoridagi matnlardan foydalanish ham, shu mavzudagi boshqa kichik matn berish ham mumkin. Maqsad shundan iboratki, talaba o'z fikrini yozma bayon qila olish, fikrni davom ettira olish, fikrni to'g'ri izchillikda shakllantira olish ko'nikmalarini egallashi kerak. Shu ma'noda noto'g'ri tartibda tuzilgan matnni to'g'rilash, matnning xulosasini yozish, berilgan shartlar asosida kichik matn yaratish kabi topshiriqlar samarali.

Yuqoridagi tajribalardan kelib chiqadiki, zamonaviy darsliklarimiz tilni kompleks o'rgatish bilan bir qatorda ijtimoiy soha leksikasini o'zlashtirish, jamiyatning eng muhim jabhalarida nutqiy malakaga ega bo'lish imkonini beradi.



## O'ZBEK TILIDAN ELEKTRON O'QUV-USLUBIY MAJMUA - DARSLIK YARATISH MASALASI

*(o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun)*

Ta'lim tizimini yangilash, ilmiy-uslubiy jihatdan zamonaviy usullar va adabiyotlar bilan ta'minlashda zamonaviy darslik va qo'llanmalarni yaratish zaruriyati tug'ildi. Hozirgi kunda o'quv jarayonida keng qo'llanayotgan O'quv-uslubiy majmuaning asosiy konsepsiyasi Davlat talim standarti talablariga rioya qilgan holda talabaning intellektual rivojlanishi va uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda talimning shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlashdir. Shu bilan birga darsga tizimli yondashuv ham muhim unsurlaridan biridir. Til o'qitish bo'yicha yaratilayotgan zamonaviy o'quv-uslubiy majmualar ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliigi, tinglash, yozish, o'qish, gapirish shakllarini qo'llash, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, matn ustida ishlash, grammatik mavzuni yoritish, amaliyot va nazorat. Shu bilan bir qatorda, o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo'yadi. Talim jarayonidagi ishtirokchi subyektlarning psixologik birligi va o'zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi kuchayadi.

Ma'lumki, dars jarayonini yangicha usul va zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil qilish bilan ta'lim sifatini oshirishga erishishimiz mumkin. Zamonaviy til o'qitish metodikasi chet tillarini intensiv va eng oson usullarda o'rgatish imkonini beryapti. Shu usullardan foydalangan holda darslik va o'quv qo'llanmalarni ham zamon talablariga mos ravishda yaratish dolzarb masalalardan biridir.


O'zbek tilini o'qitish jarayonida darsda og'zaki va yozma nutqni shakllantirish, eshitish ko'nikmalarini hosil qilish, so'z boyligini oshirish maqsadida turli usul va texnologiyalardan foydalanamiz. Lekin bu usullar darsliklarimizda o'z aksini

topmagan. Xususan, o'zbek tilini ikkinchi til yoki chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun mo'ljallangan darslik-qo'llanmalarda faqat grammatikaga doir material va o'qish uchun matnning berilishi yetarli emas. O'zbek tilini chet tili sifatida o'qitishda kompleks yondashuv tizimi yaratilsa, talaba dars jarayonida ham gapirish, ham tushunish, ham yozish, ham o'qish, ham tarjima qilish kabi amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi. Dars jarayonida fonetik-orfoepik me'yorlar, grammatik qurilmalarni uslubiy to'g'ri qo'llash, so'zlarni to'g'ri ishlatish, audiomaterialni tinglab tushunish, fikrni davom ettirish yoki nuqtayi nazar bildirish kabi bir qator ko'nikmalar kompleks ravishda shakllantiriladi. Shu maqsadda har bir mavzuni tushuntirishda quyidagi materiallar taqdim etiladi: vizual materiallar, tarqatma materiallar, o'qish uchun matnlar (📖), yozma topshiriqlar (✍️), ovoqli materiallar (🔊), grammatik materiallar (🧠). test topshiriqlari, mustaqil ta'lim uchun materiallar va h.z.

Masalan, o'zbek tilini o'rgatishning yuqori bosqichida o'tiladigan "Ommabop uslub va uning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusi bo'yicha quyidagi materiallarni berish mumkin.

### Vizual materiallar (proyektor orqali taqdim etiladi).

Masalan,





Vizual materiallarda barcha nazariy bilimlar jadval yoki diagrammalarda berilsa, talabaning o'zlashtirishi uchun oson bo'ladi.

1. **Tarqatma materiallar.** Tarqatma material sifatidagi topshiriqlar osondan murakkabga qarab berib boriladi. Mashqlarda asosan gazeta leksikasiga doir so'zlar va iboralardan foydalaniladi va ommabop uslubning o'ziga xos jihatlari mashqlar orqali tushuntiriladi. Masalan,

*Berilgan birikmalarni va ularning sinonimlarini eslab qoling.*

Ko'p asrlar mobaynida (davomida), qarashlarning yaxlit bir tizimidir (butun sistemasidir), hayot ma'nosini anglash (tushunish), an'analarimizni bezavol (abadiy) saqlash, xalqimizga mansub bo'lgan (tegishli) fazilatlar, shu zamin (yer)da ildiz otadi (paydo bo'ladi), ezgulikka chorlash (yaxshilikka chaqirish), beqiyos (katta, ulkan ma'nosida) o'rni, g'arazli xuruj (yomon maqsadda to'satdan hujum qilish), ezgu (yaxshi) g'oyalarini keng targ'ib etish (tarqatish), holatlar ham ko'zga tashlanmoqda (ko'rinyapti), manfur (yomon ma'nosida) ishlar va h.z



*Soʻzlarning mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring. Ularning uslubiy farqini tushuntirib bering.*

1. Maʼnaviy qadriyatlarining (*tiklamoq, qurmoq, koʻtarmoq*) ularning hozirgi (*dunyo, olam, jahon*) va axborot (*taraqqiyoti, sivilizatsiyasi, rivoji*) qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi. 2. Oʻzbek millati (*azaldan, qadimdan, tarixdan, oldindan*) oʻz fikri, oʻz istiqloli uchun (*urushmoq, talashmoq, kurashmoq, olishmoq*) yashaganlar. 3. Buyuk Ipak yoʻli markazida joylashgan buyuk Turon – Movarounnahr (*yer, hudud, maydon, zamin*)da (*qadim, oʻtmish, oldin, ilgari*)da xorijliklar nafaqat tijorat bilan shugʻullanar, balki ilm-maʼrifat, madaniyat durdonalari va davlatchilik asoslari bilan ham tanishar edilar. 4. Maqsadimiz oʻzining ulugʻvorligi, haqqoniyligi bilan hammamizni (*jalb etmoq, diqqatni tortmoq, qaratmoq, rom qilmoq*) kerak.

*Berilgan sinonimlardan birini tanlab gap tuzing. Nima uchun aynan shu soʻzni tanlaganingizni tushuntirib bering.*

1. A..... B..... D.....E.....F.....G.....H.....I..

A : Mustaqil, oʻzboshimcha, erkin.

B : Oʻylash, fikrlash, bosh qotirish

D : Isteʼdod, qobiliyat, talant.

E : Yoʻq bolmoq, judo boʻlmoq, mahrum boʻlmoq

F : Odam, shaxs, inson, kimsa.

G : Juda, nihoyatda, oʻta, eng.

H : Zaif, notavon, nimjon, nogiron.


I : Kishi, odam, shaxs.

*Quyidagi gap qurilmalari ishtirokida gaplar tuzing. Ushbu gap qurilmalari qaysi uslubda keng qoʻllaniladi, boshqa uslublarda ularning qanday variantlaridan foydalanamiz?*

1. .... + -ishi ahamiyatga molik.
2. .... + -ish joiz.
3. .... + -ishga bogʻliq.
4. .... + -ganini bilamiz.
5. .... + -ish lozim (darkor).
6. ....shu qadar.....+ki.....
7. Nafaqat....., balki.....

E'tibor bering, birinchi mashqda talaba faqat eslab qolishi kerak, ikkinchi topshiriqda esa so'zlarning uslubiy farqini o'zi mustaqil ravishda tushuntirishga harakat qiladi, uchinchi topshiriqda uslubiy mos so'zni tanlab qo'yishi va to'rtinchi topshiriqda esa berilgan gap qurilmalariga mos gaplar tuzishi kerak. Demak, bu mashqlar yordamida bosqichma-bosqich so'z va gap qurilmalarini uslubiy to'g'ri qo'llash ko'nikmasi shakllantirilib boriladi.

2. **O'qish uchun matn.** Har bir dars ma'lum nutqiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, berilayotgan materiallar faqat shu mavzu bo'yicha olinadi. Masalan, ushbu dars "Ma'naviy tahdid va ma'naviy kamolot" mavzusiga bag'ishlangan. Dars boshida shu mavzuga doir tayanch so'zlar beriladi. Talaba o'qish va eshitish uchun berilgan materiallarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladi.

 **Matnni o'qing. Matndan 3 ta gapni yozib olib, fikrni boshqa gap qurilmasi orqali ifodalang.**

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'alarimizni saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz... (davomi bor)

**4. Eshitish uchun material (lingafon xonalarida yoki kompyuter yordamida matn tinglanadi)**

🔊 "Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid". Matnni diqqat bilan eshiting. (matn bo'yicha topshiriqlar yozma bajariladi)

?

1. Matnda uchragan antonimlarni yozib oling.
2. Matnda antonimlardan qanday foydalanilgan. Misollar keltiring

3. Matnga tezis shaklida reja tuzing

4. “Ma’naviy bo’shliq”, “ommaviy madaniyat”, “ma’naviy tazyiq”, “mafkura poligonlari” tushunchalarini misollar bilan tushuntirib bering.

5. “Yosh avlodimiz ma’naviy olamining daxlsizligini asrash” deganda nimani tushunasiz?

6. Yovuz g’oyalarga qarshi qanday kurashish kerak? Matn asosida nuqtayi nazar bildiring.

5. **Grammatik material.** Matnda eng ko‘p uchragan va talaba uchun qiyinchilik tug‘dirgan grammatik konstruksiyalar slayd-takdimot shaklida beriladi. Xususan, ushbu mavzuda “maqsad va to‘siqsizlik ma’nolarining publitsistik uslubdagi shakllari” tushuntiriladi.

6. **Nazorat (test shaklida o‘tkaziladi, 10-15 ta test beriladi)**

Test savollarida talabaning nazariy bilimlari emas, balki matn va topshiriqlardan olgan bilimlari tekshiriladi. Masalan,

*Qaysi birikmalar uslubiy jihatdan to‘g‘ri tuzilgan ?*

- A. fidokorona inson, tarixiy jarayon
- B. muhtasham bino, ulug‘vor qahramon
- C. ilg‘or fikr, do‘stona kayfiyat
- D. tantanali marosim, buyuk ishlar.

*Biror sohada malakaga ega emas, ishlash yo‘lini bilmaydigan ma‘nosini beruvchi sinonimik qatorni belgilang.*

- A. tajribasiz, xom, g‘o‘r
- B. sodda, lapashang, bo‘sh
- C. beo‘quv, ongsiz, tentak

7. **Tarjima uchun material** aynan shu nutqiy mavzu bo‘yicha va berilgan gap qurilmalarini to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan bo‘ladi.

8. **Mustaqil ta‘lim uchun material.** Bu blokda talabaning ijodiy fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini bildira olish ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Masalan,

Fikrni davom ettiring. Quyidagi parcha publitistik maqola yoki ocherkingizning kirish qismi bo'lsin. Quyida berilgan tayanch so'zlardan foydalaning.

**Tasavvur qiling : siz tasviriy san'at muzeyiga kirdingiz. Polotnodagi ranglarni, odamlarning qiyofasini ko'zingiz bilan ko'rib hayajonga tushasiz. Tasavvur qiling: siz musiqa tinglayapsiz. Cholg'u ohanglarini eshitib hayajonga tushyapsiz... Endi tasavvur qiling : siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda qora chiziqalar – harflardan bo'lak hech qanaqa rang yo'q. Hech kim kuy ham chalmaydi. Asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. O'zingiz bilmaganda holda qattiq hayajonga tushasiz... Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchi mo'jiza!**

Tayanch so'zlar: *ma'naviy ozuqa, adabiyotning mavqeyi, estetik zavq, qahramonlar taqdiri, eskicha qarashlar, ilm-fan taraqqiyoti, kuchli qurol, voqealar rivoji, sarguzasht, tarixiy asarlar.*

Demak, dars jarayoni hamma usullarni qamrab olgan bo'lib, guruh tayyorgarligiga qarab material tanlanadi. Bunday kompleks qo'llanmalarni yaratish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarning faolligini ta'minlab beradi. Bunda nazariy bilim, grammatik materialdan tashqari, mavzu bo'yicha fikrlashga o'rgatish muhimdir. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitilayotganida mavzu bo'yicha materialning tanlanishi, mashqlar tiplari-ning xilma-xilligiga e'tibor berish, shuningdek, ularning mavzuni talab darajasida o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishini ta'minlash zarur. Elektron o'quv-uslubiy majmuada til o'rganuvchining darajasiga ko'ra mashqlarni tanlash imkoniyatini berish, oddiydan murakkabga qarab ish ko'rish, mustaqil ta'limga alohida ahamiyat berish va shunga ko'ra materiallarni muvofiqlashtirish talab etiladi.

## **XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILI TA’LIMI ORQALI MILLAT MA’NAVIYATI VA ZEHNİYATIGA XOS XUSUSIYATLARNI O‘RGATISH USULLARI**

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi va nufuzi ortib borgan sari iqtisodiy va madaniy sohadagi aloqalari ham kengayib bormoqda. Mazkur jarayonlar, jumladan, san’at, adabiyot, moda singari jabhalar qatori o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabat, e’tiborda ham aks etmoqda. Hozirgi kunda xorijliklarning o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi va havasi kuchli. O‘z faoliyatini O‘zbekiston bilan bog‘lagan turli soha: tijorat, tadbirkorlik, san’at, ta’lim, fan vakillari davlat tilini mukammal bilish istagidalar. Mazkur holatda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, xorijliklarni o‘qitishda o‘zbek tili ta’limi uchun darsliklar taqchilligi masalasini hal etish zarur bo‘lib qolmoqda.

Xorijliklarni o‘zbek tiliga o‘rgatish sohasida qator darsliklar, so‘zlashgichlar yaratilgan, bu borada Sh. Rahmatullayev, Kissen singari atoqli tilshunoslarimizning, istiqlol davrida N. Mahmudov, A. Rafiyev, R. Tolipova singari olimlarimizning xizmatlarini alohida e’tirof etishimiz lozim.

Shunga qaramay, xorijliklarga mo‘ljallangan bir necha bosqichli, salmoqli darsliklarga bo‘lgan ehtiyoj qondirilganicha yo‘q, axborot texnologiyalari asri darsliklar oldiga yangida-yangi talablar qo‘ymoqda, til o‘qitishning yangi usul va vositalarini qo‘llashni taqozo etmoqda.

Jahon tillarini o‘qitish borasidagi boy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tilni amaliyotda, muloqotda o‘rganish samarali natija beradi. Darslik o‘qish, tinglash, so‘zlashish, yozish hamda tarjima qilish malakasini egallashni ko‘zda tutadi va shu maqsadga bo‘sundiriladi. Bunday darsliklarda matn alohida o‘rin tutadi. Ushbu tezisimizda mazkur muammoning faqat bir jabhasi – matn tanlash, matnlarning mazmun-mundariyasi masalasini ko‘rib chiqmoqchimiz. Til o‘rgatishda, odatda, ma’lum lug‘at boyligi to‘planib, birikma tuzish tajribasi egallangandan so‘ng matn beriladi. Matn ta’limiy maqsad bilan birga ma’lum ma’rifiy, tar-

biyaviy, targ'ibot-tashviqot maqsadini ham ko'zda tutadi. Shu sababli, xorijliklarni o'zbeklarning milliy qadriyatlari, madaniyati, urf-odatlari hamda mentalitetidan xabardor qilish, ularga nisbatan hurmat-ehtirom hissi uyg'otish ham matn maqsadiga kiradi.

Bizda yaratilgan darsliklarning deyarli aksariyati til o'qitishning ilk bosqichiga mo'ljallangan, shu bois matnlar ko'p hollarda "Oila", "Bozorda", "Shifokor huzurida" singari mavzularda. Xo'sh, bunday matnlar orqali madaniyat, ma'naviyat, zehniyat bilan bog'liq tushunchalarni qanday berish mumkin? Quyida xorijliklarga til o'rgatishda matn tanlash borasidagi o'z tajribalarimiz bilan o'rtoqlashmoqchimiz.

Birinchi bosqichda, bir qarashda o'ta kundalik-maishiy mavzuda bo'lib tuyulgan matnlarga ham xalq madaniyati, urf-odat, taomillari, qadriyatlarini singdirish mumkin. Odatda, birinchi matn oila haqida bo'ladi. Mazkur mavzu egalik qo'shimchalaridan so'ng beriladi. Bunday matn hali fe'l zamonlari o'tilmaganligi sababli "bor" yoki "yo'q", "katta", "kichik", "inoq" singari ot kesimli gaplardan iborat bo'ladi va ilk tanishuv bosqichida samarali natija beradi. "Oila" mavzusida ham milliy madaniyatni ifodalash imkoni mavjud. Oldingi darsda -lar ko'plik qo'shimchasi haqida ma'lumot berilgan. Oila a'zolari haqida so'zlanayotganda qarindoshlik otlariga -lar qo'shimchasi qo'shilganda o'zbek tilida ko'plik ma'nosidan tashqari hurmatni ifodalashi, bu sharqona odobning bir ko'rinishi ekanligi haqida xabar berib o'tiladi. Yoki "Bozorda" suhbatidan so'ng "O'zbek bozorlari" matnini berish mumkin. Mazkur matn bozor haqidagi uncha boy bo'lmagan lug'at asosida sodda qurilmalardan tuzilib, "Chorsu metrosida "Chorsu" oziq-ovqat va kiyim bozori bor" deb boshlanadi. Matn oxirida taomlar bozori haqida gapiriladi va "odatda, ovqat bozorida savdolashilmaydi" deb qistirib o'tiladi. Mana shu jumla ham o'zbekona madaniyatni oddiy shaklda ifodalaydi.

Matn bevosita rasm-rusm, taomillar haqida bo'lishi mumkin. Bunga "O'zbek urf-odatlari" matnini keltirish mumkin. Matnga grammatik mavzu tarzida sabab va maqsad ma'nolarini ifodalash usullari ilova qilingan. 10-12 gapdan iborat matnda sabab va maqsad ma'nosini ifodalovchi qurilmalar yordamida o'zbek xalqining to'y marosimlari, nikoh, kelinsalom, osh singari udumlar haqida ma'lumot beriladi.

“O‘zbekistonda bayramlar” matni ham madaniyat, an’analar haqida xabardor qilish jihatidan diqqatga sazovor. Ushbu matn suhbat shaklida berilishi ham mumkin. Ikki kishi O‘zbekistonda qanday bayramlar borligi haqida savol-javob qiladi va bayramlarning mazmun-mohiyatidan ogoh bo‘ladi. Matn ixcham tarzda O‘zbekistonning tarixi, istiqloлга erishuvi (Mustaqillik kuni), xalqaro bayramlari (Yangi yil) hamda qadimiy (Navro‘z) bayramlari, etiqodi (Muborak Hayit bayrami) bilan bog‘liq axborotni yetkazadi.

Yana bir turdagi matnlar qadimiy obidalar, adabiyot, san‘at namoyandalari haqida bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilini yuqoriroq darajada o‘rgatish borasidagi darsliklar, asosan, oliy o‘quv yurtlarining rusiyazon talabalariga mo‘ljallangan. Xo‘sh, xorijliklarga o‘zbek tilini chuqurroq o‘rgatish bosqichida qanday matnlarni tavsiya qilish lozim?

An’anaviy darsliklarda matn (xorijliklarga mo‘ljallangan ikkinchi bosqich darsliklar bo‘lmaganligi sababli, rusiyazon talabalarga mo‘ljallangan darsliklar misolida fikr yuritimiz) tanlashda, asosan, grammatik mavzu talabiga bo‘ysunilgan, albat-ta, mavzular ma‘lum tarbiyaviy maqsadni ham ko‘zda tutadi, lekin ular tizimlashtirilmagan, ba‘zan tizimga solinsa ham, izchillik saqlanmaydi va bu narsa faqat bo‘lim nomi darajasida qolib ketadi. Til o‘qitishning jahon tajribasi ma‘lum tizimga solingan nutqiy mavzular bo‘yicha to‘plangan matnlar asosida grammatik hamda ma‘rifiy-tarbiyaviy ma‘lumot berishni ko‘zda tutadi.

Masalan, “Madaniyat” degan maxsus nutqiy bo‘lim ichida 5-6ta matn keltirish mumkin. Mazkur bosqichda matnlar bevosita madaniy obidalar, buyuk madaniyat, san‘at va adabiyot namoyandalari hayoti va ijodiga oid yoki tarjimai holidan lavhalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Butun mashg‘ulot o‘qish, tinglash, so‘zlash, yozish, tarjima qilish ko‘nikmalarini egallash maqsadiga yo‘naltiriladi va muayyan nutqiy mavzu doirasida amalga oshiriladi. Grammatik mavzu nutqiy mavzuga singdirib yuboriladi, uni o‘zlashtirish jarayonida egallanadi.

Milliy madaniyatni yorituvchi materiallarni tanlash darsdan ko‘zlangan faqat ta‘limiy emas, tarbiyaviy maqsadga erishishda yaxshi samara beradi.

## MUNDARIJA

O‘zbek tilini xorijliklarga intensiv o‘rgatish konsepsiyasi.....	3
O‘zbek tilini intensiv o‘qitish dasturi.....	15
O‘zbek tilini intensiv o‘rgatishda tizimli yondashuv .....	32
Xorijliklarga til o‘rgatishda matn materialini tanlash .....	35
O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda grammatik qurilmalarni noan’anaviy usulda tushuntirish yo‘llari .....	39
Xorijiy talabalarga o‘zbek tilidagi fe‘l shakllarini o‘rgatishning muhim jihatlari.....	42
Til o‘rgatishda “shakldan mazmunga” usuli .....	45
O‘zbek tilini o‘qitishda xorijiy tillarni o‘rganish tajribalaridan foydalanish masalasi .....	48
O‘zbek tilidan elektron o‘quv-uslubiy majmua – darslik yaratish masalasi .....	53
Xorijliklarga o‘zbek tili ta’limi orqali millat ma’naviyati va zehniyatiga xos xususiyatlarni o‘rgatish usullari .....	60



**O‘ZBEK TILINI  
XORIJIY TIL SIFATIDA  
O‘RGATISH MASALALARI**

Texnik muharrir:  
*Mirolim Zarifov*

*Musahhih:*  
*Shohida Shakirova*

Ushbu qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashi tomonida nashrga tavsiya etilgan (№3 bayonnoma, 1.11.2012).

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012